

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
T A' L I M V A Z I R L I G I**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT UNIVERSITETI**

PEDAGOGIKA FAKULTETI

Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası

Omonova Yulduz

**Boshlang'ich sinflarda xalq og'zaki ijodini o'rgatishda innovasion texnologiyalardan
foydalanish ("Alpomish" dostoni misolida)**

5141600 - Boshlang'ich ta'lim, tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishi bo'yicha
bakalavr akademik darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: k. o'qit. Qurbonov Z.

Malakaviy bitiruv ishi Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida bajarildi.
Kafedraning 2014-yil 29-maydagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga
tavsiya etildi
(bayonnoma № 10).

Kafedra mudiri: dots. Shodiyev F.

Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2014-yil ___iyundagi majlisida
himoya qilindi va _____ foizga baholandi (bayonnoma № ____).

YaDAK raisi: _____

A'zolari: _____

Samarqand – 2014

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I:BOB. XALQ OG’ZAKI IJODI VA UNI O’QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	
I.1. Xalq o’g’zaki ijodi va o’zbek folklorshunosligining taraqqiyoti.....	7
I.2. Innovatsion texnologiya hamda o’qish darslarining ta’lim-tarbiyaviy ahamiyati.....	19
II:BOB. DOSTON VA UNING TARBIYAVIY AHAMIYATI HAQIDA	
II:1. Kichik yoshli o’quvchi – kitobxon sifatida	
II:2. Doston janri va ijro etish tartibi.....	23
II:3. ”Alpomish” dostonining tarbiyaviy ahamiyati	
II:4. Boshlang’ich sinf o’qish darsligidagi “ Alpomish ” dostonini o’rgatishda interfaol usullardan foydalanish.....	51
II:5. Tadqiqot usullari va natijalarini tahlili.....	61
Xulosa.....	67
Foydalanilgan adabiyotlar.....	69
Ilovalar.....	73

REJA

KIRISH

I:BOB. XALQ OG'ZAKI IJODI VA UNI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

I.1. Xalq o'g'zaki ijodi va o'zbek folklorshunosligining taraqqiyoti.

I.2. Innovatsion texnologiya hamda o'qish darslarining ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati .

II:BOB. DOSTON VA UNING TARBIYAVIY AHAMIYATI HAQIDA

II:1. Kichik yoshli o'quvchi – kitobxon sifatida.

II:2. Doston janri va ijro etish tartibi.

II:3. "Alpomish" dostonining tarbiyaviy ahamiyati.

II:4. Boshlang'ich sinf o'qish darsligidagi "Alpomish" dostonini o'rgatishda interfaol usullardan foydalanish

II:5. Tadqiqot usullari va natijalarini tahlili.

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

KIRISH.

BITIRUV ISHINING UMUMIY TAVSIFI.

1. Mavzuning dolzarbligi. Boshlang'ich sinflarning o'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta'limini o'qish ta'limsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

O'quvchi matnni to'g'ri, tez, tushunib o'qish, mazmunini o'zlashtirish bilan ilk bor o'qish darslarida yuzlashadi. O'qish darslari orqali o'quvchilarning Davlat ta'lim standarti (DTS) talablari bo'yicha o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan o'quv-biluv ko'nikma-malakalari hamda bilimlarni egallashlariga yo'l ochiladi. Aynan o'qish ta'limida insonning, avvalo, o'zligini, qolaversa, olamni anglashga bo'lgan intilishlariga turtki beriladi.

Shu maqsadda "O'qish kitobi" darsliklariga ona tabiat, atrofimizni o'rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqloq va milliy-ma'naviy qadriyatlar, xalqlar do'stligi va tinchligi kabi turli mavzular bo'yicha atroflicha tushunchalar berishga mo'ljallangan badiiy, axloqiy-ta'limiy, ilmiy-ommabop asarlar kiritiladi.

O'qish darslari savod o'rgatish davrida o'quvchilarni bo'g'in, so'z va gaplar bilan tanishtirish va ularni o'qish, rasmlar asosida hikoya qilish tarzida uyushtirilsa, o'qish texnikasi egallangandan so'ng o'qish muayyan mavzular bo'yicha tanlangan badiiy, ilmiy-ommabop matnlar yuzasidan olib boriladi.

Boshlang'ich sinf "O'qish kitobi" darsliklariga kiritilgan muayyan mavzular o'quvchilarni badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirishi, dunyoqarashlarini milliy istiqloq mafkurasi asosida to'g'ri shakllantirishga qaratilishi bilan belgilanadi. Shunga ko'ra, o'qish darslarining yetakchi xususiyati o'quvchilarning savodxonligini ta'minlash bilan birga, o'quvchilarni milliy mafkura asosida yuksak axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratiladi.

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'rganiladigan asarlarning mavzu doirasi ancha keng bo'lib, ular ona tabiat, yil fasllari, xalq og'zaki ijodi, mehnatga

muhabbat, asosiy bayram sanalari, milliy istiqlol va ma'naviyat kabi umumiy mavzular doirasida birlashtirilgan.

O'qish darslari uchun tanlangan mavzular o'quvchilarga kundalik hayot, mustaqilikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bo'yicha ham bilim va tarbiya berishni ko'zda tutadi. Bular ichida istiqlol, vatan, ma'naviyat va tabiat haqidagi mavzular alohida ajralib turadi. Ulardan ko'zlangan maqsad o'zlikni anglash, istiqlol, vatan va tabiat bilan bo'g'liq tuyg'ularni o'ygotishdir.

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilariga o'qish darslarida mustaqil ishlarni pedagogik talablar asosida to'g'ri tashkil etilishi har jihatdan foydalidir.

O'qish mashg'ulotlarida mustaqil ishlarni tashkillashtirishdan maqsad o'quvchilarni o'z ustida ishlash, nutqini rivojlantirish, mavzuga oid grammatik mashqlarni mustaqil bajara olish qobiliyatlarini shakllantirishdir. Albatta, o'qish darslari fan o'qituvchilari tomonidan puxta o'ylangan, ma'lum tizimga solingan, o'quvchilar aqliy bilimlarini charxlaydigan bo'lishi lozim.

Bitiruv ishi uchun tanlangan mavzu ana shu jihati bilan ahamiyatlidir.

Yurtboshimiz I.A.Karimov aytganidek, bizning vazifamiz ham yosh avlod tarbiyasi ekan, "Dunyoda nufuzli kasblar ko'p, ammo, ular orasida o'qituvchilik kasbi alohida yuksak mavqega ega".¹

Shu jihatdan tanlangan mavzu hozirgi vaqtda olib borilayotgan ta'lim-tarbiya ishlarining eng dolzarb mavzularidan sanaladi.

2. Bitiruv ishining oldiga qo'ygan maqsad va vazifalari.

Maktab o'quvchilari, ayniqsa, 2-3-sinf o'quvchilari ma'lum darajada o'qish ko'nikmasini egallaganliklari uchun ularni matn ustida mustaqil ishlashga ko'proq e'tibor berish lozim.

O'quvchilarning topshiriqni tez, to'g'ri bajarishi uchun qulay usullarni tanlay bilishi, ishga ijodiy yondashishi muhimdir. O'quvchilarni ishni bunday o'ylab, izchil bajarish ko'nikmalari o'z-o'zidan hosil bo'lmaydi, albatta. Bunday ko'nikmalarni bolalar o'qituvchining alohida o'tkaziladigan mashqlari orqali egallaydilar. Faqatgina

¹ Qarang: I.A.Karimov "O'zbekiston buyuk kelajak sari". Toshkent. "O'zbekiston nashriyoti 2008-yil. 146-bet."

o'qituvchi rahbarligida ishlagandagina, ular fikrlashga, amaliy mashg'ulotlarni ijodiy bajarishga, yo'l qo'yilgan xatolarni topish va uni tuzatishga o'rganadilar.

Biz ushbu mavzuni yoritishda, pedagogik amaliyotda o'tagan tajribamizga suyanib, 2-4-sinf maktab o'quvchilarida o'tkazilgan dars jarayoni va darsdan tashqari o'tkazilgan mustaqil ishlarni tashkil etishga oid fikrlarimizni bayon qilamiz.

3. Bitiruv ishini yozishda asoslangan materiallar.

Ishni yozishda Prezidentimiz I.A.Karimovning qator asarlari, xususan, "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch", "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida", "O'zbekiston buyuk kelajak sari",

"Bizdan ozod va obod Vatan qolsin", "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori", singari asarlaridan, Abdullayeva Qumri, Ahmedov Quadrat, Dolimov S.D. Ubaydullayev H., Mavlonova Rahima, Solibekov M., Yusupov M., Mahmudova M., Rahmonbekova S., Qosimova K., Matchonov S., G'ulomov M., Solihov O. singari olim va metodistlarning asarlaridan, shuningdek, boshlang'ich sinf o'qish darsliklaridan, ilmiy tadqiqot, monografiya va maqollaridan foydalanib ish ko'rdik.

4. Ishning yozilishida qo'llanilgan metod. Albatta, o'qish darslari o'qituvchi tomonidan uning rahbarligida o'tkaziladi. Bu o'z navbatida, o'qituvchi tomonidan puxta o'ylangan, rejalashtirilgan, ma'lum tizimga solingan va mazmunli bo'lishi talab qilinadi.

Biz mazkur bitiruv ishimizni olgan bilim va tajribamizga tayangan holda, shuningdek, pedagogik amaliyot o'tgan Samarqand shahar 49-umum ta'lim maktabidagi o'qituvchilarning ish tajribasiga suyangan holda yoritishga harakat qildik.

5. Ishning ilmiy yangiligi. Darhaqiqat, o'qish darslari orqali o'quvchilarning bilim olish samaradorligini oshirishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'z navbatida yangilik sanaladi. Chunki, o'qish darslarida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun

yangilik boʻlmasa-da, uni tashkil etish, unumli va samarali boʻlishiga erishish koʻp jihatdan sinf oʻqituvchisining mahoratiga bogʻliq.

Oʻqish darslarida mustaqil ishlarning samaradorligini oshirish oʻquvchilar tafakkurini va ongini oʻstiradi, fikrlash qobiliyatini charxlaydi, dadil fikr-mulohazalar yuritishga chorlaydi. Oʻz fikrini aytish, yozish uchun imkoniyat yaratadi. Kelajakda ilmiy salohiyatga erishish uchun keng yoʻl ochib beradi.

6. Ishning amaliy ahamiyati. Ushbu bitiruv malakaviy ishidan pedagogika va psixologiya, defiktologiya boʻlimlarining talablari, maktablardagi ona tili va adabiyot oʻqituvchilar kurs va bitiruv ishlarini yozishda, mustaqil ishlarni tashkillashtirishda, shuningdek, boshlangʻich sinf oʻqituvchilari fakultativ mashgʻulotlarda, foydalanishlari mumkin.

7. Ishning muhokamasi. Bitiruv ishining dastlabki muhokamasi pedagogika fakulteti boshlangʻich sinflarda gumanitar fanlar va ularni oʻqitish metodikasi kafedrasida oʻtkaziladi.

8. Ishning tuzilishi. Bitiruv ishi kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat.

9. Ishning mundarijasi. Ishning kirish qismida, umuman, mavzuning dolzarbligi, uning oldiga qoʻygan maqsad va vazifalari, ishning ilmiy yangiligi, tahlil uslubi, ishning amaliy ahamiyati hamda shakliy tuzilishi haqida fikr yuritilgan.

Birinchi bob: Xalq ogʻzaki ijodi va uning tarixiy tarqaqiyoti, folklor va oʻzbek folklorshunosligining taraqqiyot davri haqida fikrlar bayon qilingan.

Ikkinchi bob: Ertak va uni oʻqitish metodikasi, ertaklarning paydo boʻlishi va ijro etish tartibi, boshlangʻich sinf oʻqish darslaridagi ertaklarning turlari va tarbiyaviy ahamiyati, boshlangʻich sinf oʻqish darsligidagi “Botir mergan va chaqimchi” ertagini oʻrgatishda interfaol usullardan foydalanish haqida maʼlumotlar keltirilgan.

I:BOB. XALQ OG'ZAKI IJODI VA UNI O'QITISHDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

I.1. Xalq o'g'zaki ijodi va o'zbek folklorshunosligining taraqqiyoti

So'z san'atining boshlang'ich namunasi bu folklor bo'lib, u behad qadimiy so'z san'ati sanaladi, unda uzoq o'tmishda yashagan ibtidoiy ajdodlarimizning hali yozuvni bilmagan zamonlardagi turish-turmushi, dunyoqarashi va e'tiqodi, kurash va mag'lubiyatlari ifodalangan. Folklorda tasvirlangan voqelik vaqt (zamon) e'tiboriga ko'ra o'tmishga daxldor, undagi u yoki bu jam tabiatida, til xususiyatlarida buning izlarini ko'rish mumkin. «Xalq poeziyasining qaysi bir yodgorligi xususida o'ylab ko'rmang, uning zamirida diniy-hayotiy yoki diniy-marosim, uy-xo'jalik yoki «xalqaro siyosiy g'oya» yarqirab turishini ta'kidlar ekan, E.V.Anichkov folklorda ifodalangan poetik obrazlar genetik asosi o'sha qadimiy e'tiqodlardan suv ichishini nazarda tutgan.¹ «Folklor» atamasi aslida «folk» - xalq va «lore» — donolik so'zlaridan yasalgan bo'lib, «xalq donoligi, xalq donishmandligi» ma'nolarini anglatadi. Uni birinchi marta 1846-yilda Vilyam Toms ilmiy istiloh sifatida qo'lladi. Shundan boshlab bu istiloh xalqaro miqiyosda ilmiy taomilda o'zlashib ketdi. O'zbek folklorshunosligi tarixida «folklor» istilohi nisbatan keyinroq ilmiy iste'molga kirdi. U dastlab «el adabiyoti», «og'zaki adabiyot», «og'zaki ijod» tarzida qo'llanildi. 1935-yilda H.Zarif va Sh.Rajabiylarning «O'zbek sovet folkloridan namunalar» kitobi bosilib chiqqandan keyin mazkur istilohni qo'llash taomilga kira boshladi va asta-sekin o'zbek folklori tushunchasi zamirida o'zbek xalq og'zaki poetik ijodi tushuniladigan bo'ldi. Hodi Zarifning oliy o'quv yurtlari uchun tuzgan ikki jildlik «O'zbek folklori* (1939 va 1941-y.) xrestomatiyasi nashr etilgach, u yanada barqarorlashdi.

O'zbek folklori xilma-xil janrlardan tarkib topgan og'zaki so'z san'ati bo'lib, xalqimizning dunyoqarashi, badiiy zavqi, ijodiy salohiyati, simpatiya va antipatiasini, orzu va intilishlarini aks ettiradi. Binobarin, folklori maxsus fan sifatida oliy o'quv yurtlarida o'qitish hayotiy zaruriyat taqozosi tufayli amalga oshdi.

V.M.Miller esa xalq ijodiyotiga «xalqshunoslikning tarkibiy qismi»² sifatida qarab, uning xalq rasm-rusumlarini ifodalagan etnografik mohiyatini ta'kidlaydi.

Folklorning betakror so'z san'ati sifatidagi mohiyati xalq turmushini ifodalaganligi tufayli etnografiya bilan, xalq ruhiyati va e'tiqodiy qarashlarini aks ettirib ruhshunoslik va din tarixi bilan, xalq axloqiy qarashlarini ifodalab tarbiyashunoslik bilan, musiqa, raqs va harakatlarga omuxtaligi bois san'atshunoslik bilan va nihoyat jonli so'zlashuv tilida yaratilganligi sababli tilshunoslik fanlari bilan singishganligida namoyon bo'ladi. Bu uning ko'p vazifali hodisaligini ta'minlagan omildir.

Xalq — folklorning ijodkori. Folklor qabila, urug', elat, xalq yoki millatning mafkurasi va psixologiyasini aks ettiradi. Uning paydo bo'lishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Boshda ijod g'ayrihuuriy holda bo'lgan. Ijodkor g'ayriixtiyoriy tarzda mohiyatni tushunmagan holda ijod etar edi. Chunonchi, ovchi cho'qqida hayvon rasmini beixtiyor chizar yoki uni qanday qilib ov qilganligini urug'doshlariga aytib bera turib, badiiy obraz yaratilayotganligini o'zi anglamas edi. Shu asnoda amaliy mulohazalar zahirida «san'at asari» to'g'ilardi: rasm ovchiga yo'l ko'rsatar, raqs qushlar va hayvonlar harakatini takrorlash asosida ko'rinmasdan ularga yaqinlashish yo'li vazifasini bajarsa, qo'shiq mehnat jarayonining ritmik regulyatori — so'zlovchisi edi. Ibtidoiy jamiyatda folklor hayot bilan mustaqil kurash vositasiga aylanib shakllandi. Qoyalardagi tasvirlar, bolta va boshqa mehnat qiriollari qadimiy ajdodlarimizning tabiiy tuyg'ularini shakllantira bordi, hayvonlardan farqli o'laroq, badiiy ijod qilish iqtidorini uyg'ota boshladi, ulardagi ma'naviy kuchning qo'pol amaliy ehtiyojlar asirligidan qutulishiga ko'maklashdi. Albatta, eng qadimiy mehnat quroli boltaning ixtirosi hali san'atning ifodasi bo'la olmas, lekin ibtidoiy inson unda o'z «ijodiyoti»ni ko'rib, qanoat tuyg'usini kechirdi.

Asta-sekinlik bunday takrorlash va takomillashtirish ehtiyojga aylana bordi. Endi insonga boltaga dasta yasash kamlik qilar, shuning uchun o'sha dastaning qulay bo'lishi zarurligini anglab yetdi. Natijada mehnat qurolining ko'rkam va qulayligi uchun kurash estetik tafakkur rivojiga turtki bera bordi. Odamlar endi mehnat qurollariga turli-tuman rasmlar chizadigan bo'ldilar. Boshda ovchi qanday ov qilganligini dalillardan chekinmay hikoya qilgan bo'lsa, bora-bora shu hikoyasiga o'z hayotiy tajribalarini qo'shgan holda, hayot epizodlarini bir-biriga solishtirgan holda, ko'rgan-kechirganlari bilan boyitilgan holda xayoliga erk berib ifodalaydigan bo'ldi.

Xayolga erk berish zamirida ibtidoiy odamda estetik tuyg'u shakllana bordi, go'zallikni tushunish va anglash teranlashdi va shular zaminida xalq og'zaki ijodiyotining dastlabki namunalari yuzaga keldi.

Ilg'or g'oyaviylik — folklor xalqchilligi negiziga aylandi. Xalq og'zaki ijodi namunalarida aks etgan ijtimoiy-tarixiy voqealar hamisha oddiy mehnat kishilari — umumxalq manfaatlari nuqtayi nazaridan baholanadi. Buning mohiyatini M.Gorkiy shunday izohlagan edi: «Folklor eng qadim zamonlardan boshlab o'ziga xos ravishda hamma vaqt tarixga hamroh bo'lib keladi. Folklor Lyudovik XI va Ivan Grozniyning faoliyatini o'zicha baholaydi. Uning fikri monarxlarning feodallar bilan urushi va xalq hayotida qanday karomat ko'rsatganligi masalasi bilan qiziqqan kishilar tomonidan yozilgan baholardan keskin farq qilib turadi».4 Bu holni xalqning Amir Temur va Zahiriddin Boburga xayrixohlik va chuqur muhabbatini ifodalovchi qanchadan-qancha afsona va rivoyatlarida, tarixiy dostonlarda ko'rish mumkin. Qolaversa, shu xalqqa zulm-u tahdidni haddan oshirib, nafratga giriftor bo'lgan Abdullaxon I haqida «Abdullaxon — beustaxon» topishmog'ini yaratib, uning burgaday qonxo'rligiga shama qilgan edi. Xalq o'z ijodiyotiga hamma zamonlarda ham mehnatni va mehnat kishisini, uning yuksak ma'naviy jismoniy go'zalligini kuylashdan tolmadi. Uning g'oyaviy va estetik qarashlari insonning buyuk bunyodkorlik faoliyati, jismoniy va axloqiy sog'lomlasha boruvi, ma'naviyati va e'tiqodining teranlashuvi bilan takomillasha bordi. Natijada xalq o'z ijodida barcha yovuzlig-u yomonliklarni, noxushlig-u toshbag'irliklarni, shafqatsizlig-u qabohatlarni, ezgulikni sharaflashga xizmat qiluvchi motiv tarzida talqin qildi, shu sababli folklorda mehnat kishisi — hamisha g'olib, mag'lublikni bilmaydi. Folklorda xalq optimizmi yengilmas qudratga ega pafos darajasiga ko'tarilgan.

O'zbek folklorining janriy tarkibi va tizimi. Folklor asarlari ham. barcha san'at asarlarida bo'lganidek, o'zlarigagina xos tuzilish, g'oyaviy-badiiy xususiyatlar, qo'llanish o'ri va bajaradigan vazifalariga ega va shu fazilatlariga ko'ra muayyan guruhlarni tashkil etadilar. Bunday guruhlanishni ifodalash uchun folklorshunoslikda ham, adabiyotshunoslikda ham keng qo'llanuvchi bir qator tushuncha va istilohlardan foydalaniladi.

Adabiy tur, jam va janriy xilma-xillik tushunchalari shunday hodisalardan bo'lib, ular hayotni badiiy tasvirlash usul va shakllari sifatida uzoq davrlar mobaynida vujudga kelgan barqarorlikka ega bo'lib, juda sekinlik bilan o'zgarib boradi. Tur, jam va janriy xilma-xillikni farqlash asar ijrochilari uchungina emas, balki ularni tinglovchilar uchun ham, xalq og'zaki ijodini tadqiq etuvchilar uchun ham ahamiyatli bo'lib, bu o'sha hodisalarning shakllanishi, almashinuvi, so'nishi kabi jarayonlarni kuzatish asosida adabiyot va folklorga xos qonuniyatlarni, tarixiy jarayonlarni o'rganish va umumlashtirish imkonini beradi. Demak, tur va janrlarning paydo bo'lishi, taraqqiyoti, o'rin almashishi va inqirozi folklor va adabiyot taraqqiyotida asosiy jarayon hisoblanadi.

Qadimgi grek faylasufi Aristotel (eramizdan oldingi 384-322 yillar), nemis faylasufi Gegel (1770-1831 yillar) va ulug' rus adabiyotshunosi V.G.Belinskiy (1811-1848 - yillar) kabi mutafakkirlar badiiy ijodning uch turi — epos, lirika va drama mavjudligini e'tirof etganlar. Adabiy turlarning bu tasnifi Aristotel «Poetika»sidan boshlangan bo'lib, ilmiy taomilda hozirgacha qo'llanib kelinmoqda.

Tur tushunchasi keng ma'noga ega. U o'z ichida turli janrlarni qamrab oladi. Turlar voqelikni tasvirlash usullari sifatida bir-biridan farq qiladi. Epos voqelikni obyektiv holda sujetli-hikoyaviy yo 'sinda ifodalasa, lirika subyektiv holda insonning voqelikdan olgan taassurotlarini, ichki hayajonlarini lirik «tep» tuyg'ulari tarzida tasvirlaydi. Drama esa, personajlar nutqi va harakati orqali hayot manzaralarini chizadi, ko'rsatadi.

Turlarning har biri yana qator xillarga ega. V.Belinskiy ularni «turning butoqchalari» sifatida ta'riflaydi, bu hozir adabiyotshunoslikda, jumladan, folklorshunoslikda ham «janr» atamasi bilan yuritilmoqda. Ayrim hollarda adabiy tur va janrlarni farqlamay (nasrni ham tur, ham jam yoki lirikani ham tur va jam tarzida) qo'llash asosida hodisalar tabiatiga e'tiborsiz qarashdan tug'ilgan noaniqlikdir. Holbuki, tur deyilganda voqelikni ifodalash yo 'li, usuli (epik, lirik, dramatik), jam deyilganda voqelikni badiiy ifoda etish shakllari (ertak, qo'shiq, maqol) tushuniladi. Ammo har bir jam ham ichki xilma-xillikka ega, bu unda ifodalanuvchi mavzu mohiyatidan kelib chiqadi.

Chunonchi, ertakning ichki ko'rinishlari sifatida hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli ertaklar, maishiy ertaklar kabi xillari mavjud. Qo'shiq janriga xos ichki xilma-xillik ham mavzu, ham vazifasiga bog'liq holda yuzaga kelgan. Aytaylik, «Sust xotin», «Choy momo» va «Laylak keldi» mavsumiy marosim qo'shiqlariga xos ichki xilma-xillikni aks ettirsa, o'lan, yor-yor, lapar, kelin salom, kuyov salom, jarlar, kelin o'tirsin, kuyov o'tirsin va boshqalar maishiy marosim qo'shiqlarining ichki janriy ko'rinishlaridir. Binobarin, bunday hodisalarni ifodalash uchun «janriy xilma-xillik» tushunchasidan foydalaniladi.

Sinchiklab qaralsa, folklor janrlari bu uch turga sig'mayotgandek tuyuladi va bu folklorning yozma adabiyotdan farq qiluvchi xususiyati hamdir. Gap shundaki, folklor jamlarining ayrimlari har xil marosimlar va mehnat turlari bilan uzviy aloqador bo'lsa, boshqalari kuylashga va o'ynab ijro etishga mo'ljallangan. Bu, o'z navbatida, janrlarga ularning ijro xususiyatlari va vazifalari nuqtayi nazaridan ham yondashmoqni taqozo etadi. Shu jihatdan ularni ikki yirik guruhga bo'lish mumkin: a) marosim folklori janrlari: b) marosimga aloqasi bo'lmagan folklor janrlari. Shuningdek, folklor asarlarining kimga mo'ljallanganligini hisobga olib ham ularni yana ikki guruhga — kattalar va bolalarfolkloriga ajratish mumkin. Ammo bolalar folklori janrlarining (alia, erkalama, ovutmachiq, qiziqmachiq, qaytarmachiq, yalinchoq, hukmlagich, qiqillama, tegishmachiq, masxaralama, chorlama, cheklashmachiq, sanama, tarqalmachiq, tez aytish, chandish, guldur-gup va boshqalar) tuzilishi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, hayotni tasvirlash shakli va qamrovi vazifasiga qarab, uch adabiy turdan biriga kiritish mumkin. Binobarin, badiiy adabiyotning uch turga bo'linishini muayyan istisnolar bilan folklorga nisbatan ham qo'llasa bo'ladi. Demak, o'zbek folklori ham epik (asotir, mif, afsona, rivoyat, nakl, latifa, ertak, terma, doston va tarixiy qo'shiq), lirik (marosim folklorining deyarli barcha janrlari, bolalar folklorining barcha janrlari, qo'shiqning hamma ichki xillari, ashula va boshqalar) va dramatik (og'zaki drama, qo'g'irchoq o'yin, askiya, lof va boshqalar) turlar va ularga mansub janrlardan tarkib topgan yaxlit tizim (sistema)dir.

Istisno esa, ayrim janrlarga taalluqlidir. Chunonchi, folklorshunoslikda «kichik janrlar» tarzida qaralib kelinayotgan maqol, topishmoq, irim va «yumuq» iboralar aslida paremik turga mansub hisoblansa-da, B.Sarimsoqov ularni «maxsus tur» tarzida ajratadi, hatto qarg'ish, so'kish va olqish janrlarini ham shu doirada qarashni taklif etadi. 5

O'z-o'zidan ayonki, qarg'ish, so'kish va olqish janrlarida so'z magiyasi unsuri g'oyat kuchlidir, qolaversa, qarg'ish va so'kishning marosim tarkibidagi ijrosi tamoman so'ngan esa-da, olqish janrining turli marosimlarga aloqador holatdagi ijrosi qisman saqlangan. Binobarin, qarg'ish, so'kish va olqish janrlari so'z magiyasiga aloqador hodisa sifatida qaralmog'i folklor janriy tasnifotida muayyan aniqlikka erishuv imkoniyatini tug'diradi.

Folklorshunos V.E.Gusev esa maqol va topishmoq janrlarini epik tur tarkibida o'rganishni zarur hisoblaydi.⁶ Agar birgina folklor janrlarida ikki, hatto uch turga xos alomatlar uchrashi nazarda tutilsa, maqollar va topishmoqlarning goh nasriy, goh she'riy shakldaligiga yohud mazmuniga qarab u yoki bu adabiy turga nisbat berish oson, albatta. Ammo ularning ham shaklan, ham mazmunan, ham hajman o'ziga xos so'z san'ati namunasi ekanligini va janrdagi asosiy uzv badiiy matn ekanligi hisobga olinsa, ularni alohida paremik tur tarkibida o'rganish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, tabular ham xalq turmushida uzoq asrlar davomida sinalgan axloqiy-ma'naviy nizom mohiyatini kasb etgan paremik hodisadir. Binobarin, tabularni ham paremik turga mansub alohida va mustaqil jam sifatida qarash joizdir.

Folklorshunoslikda gohi-gohida turlararo yoki janrlararo chatishmalar hosilasi tarzida liro-epik qo'shiq yoki ertak, afsona singari hodisalar tilga olinsa-da, aslida bu hodisa folklor uchun umumiy emas. Shu sababli ularni folklor janrlari tasnifi doirasiga kiritib bo'lmaydi. Chunki bunday qo'shilma yoki oraliq janrlar hech qachon qat'iy turg'unlikka ega emas va folklordagi tarixiy taraqqiyot jarayonida hal qiluvchi ahamiyat kasb etmaydi. Turlar va janrlar taraqqiyotini turlar va janrlarning oraliq namunalarini yoki qo'shilmalarini emas, balki yangi badiiy shakllarning yuzaga kelishi va eskilarining so'nishi belgilaydi.

Folklor janrlarining yuzaga kelishi, shakllanishi va taraqqiyotidagi muhim omillardan biri ijtimoiy ehtiyoj zaruriyatidir. Chunki voqelikning o'zi xilma-xil obrazlarga boy bo'lib, xalq ijodiyoti oldiga uni g'oyaviy - tarbiyaviy hamda estetik mohiyatini idrok etgan holda qay bir shaklda ifodalashni zaruriyatga aylantiradi. Aytaylik, uzoq ajdodlarimizning bosqinchilarga qarshi kurashi afsonalar yoki qahramonlik dostonlarini yuzaga keltirgan bo'lsa, tabiat kuchlari oldidagi ojizliklari so'z magiyasiga sig'inish asosidagi janrlarning bunyodga kelishini ta'minlagan. Demak, voqelik tabiati ifoda shaklini yuzaga keltirishga xizmat qilgan, bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, ijtimoiy hayot (voqelik)dagi turli-tuman, yanayam aniqrog'i, tasvirlanishi ko'zlangan voqelikdagi xilma-xillik janrlar rang-barangligini ta'min etadi.

Xalq badiiy tafakkurining taraqqiyot darajasi ham u yoki bu janming yuzaga kelishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Chunonchi, inson o'z ma'naviy taraqqiyotining ilk bosqichida murakkab shakillarni bunyodga keltirishga qodir emas edi, shu sababli dastavval oddiy va kichik shakillar yuzaga kelgan, keyin esa ularning takomillashuvi zahirida katta va murakkab janrlar paydo bo'lgan. Shu tariqa jamlarning qaror topishi qonuniy hol bo'lib, bu jarayon ham ijtimoiy tarixiy omillar, ham fo'Morning ichki taraqqiyot qonunlariga muvofiq kechadi.

Ayonlashayotirki, folklorda jam hodisasi yozma adabiyotdagi janr hodisasi aynan teng emas. Ular farqli xususiyatlarga ega. Masalan, yozma adabiyotda janr hodisasi ikki jihatga ko'ra: a) o'ziga xos hayotiy qamrovga egaligi va b) yaxlit badiiy tizimda namoyon bo'lishi bilangina belgilanadi. Folklorda esa, janr hodisasi, V.Y.Propp qayd etganidek, to'rt belgisiga: a) yaxlit adabiy tizim tarzida namoyon bo'lishi; b) maishiy mohiyatga yo'nalganligi yoxud maxsus vazifadorligi; v) o'ziga xos ijro shakliga egaligi va nihoyat g) musiqa bilan uzviy aloqadorligiga qarab belgilanadi.

5.O'zbek folklorining janrlar tarkibi g'oyat boy va xilma-xil bo'lib, boshqa xalqlar folklorining janrlar tarkibidan farq qiladi. Shuningdek, unda hamma xalqlar folklorida uchrovchi umumfolklor janrlari-ertak, maqol va topishmoq mavjudligiga qaramay, ruslardagi bilina, skandinaviyaliklardagi saga, oltoyliklardagi qaylardan farq qiluvchi doston janri ham bor. Lof va askiya kabilar, asosan, o'zbek folkloriga

xos janrlardir. Bunday o'ziga xos janrlar boshqa xalqlar folklorida ham mavjud. Chunonchi, ukrain folklorida дума va kolomiykalar, polyak folklorida krakovyaklar, qoraqalpoqlardagi to'lg'ov, qozoqlardagi aytis shu xildagi o'ziga xos janrlardir. Shuningdek, ukrain va beloro's folklorida kolyadkalar keng tarqalgan bo'lsa, rus folklorida raseykalar, o'zbek hamda tojik folklorida yo ramazon va hayitliklar shunday xususiyatga ega. Bir necha xalqlardagi bir-biriga o'xshash janrlar ham ma'lum xususiyatlariga ko'ra o'zaro farq qiladilar. Bu holat, avvalo, har bir xalqning tarixiy urf-odati, maishati, orzu-umidlari, dunyoqarashi, ijtimoiy-estetik munosabatlari va turmush tarzining in'ikosiga aylangan folklorining o'ziga xosligi bilan izohlanadi.

O'zbek folklori janrlari ijodkorlar faoliyati bilan ham chambarchas bog'liq. Topishmoq va maqol singari janrlar ommaviy ijroga mo'ljallangan bo'lsa, doston, og'zaki drama, askiya ijrosi professional tayyorgarlikni taqozo etadi. Shu sababli o'zbek folklorida ijodkorlarning professionallashuvi nihoyat rivojlangan. Baxshilar, ertakchilar, askiyabozlar, qiziqchilar, laparchilar ijrochiligi rivojlangan professional san'at hisoblanadi. Bunday ijodkorlar maxsus tayyorgarlik ko'rish, muayyan ustozdan ta'lim olish asosida voyaga yetib, profesional xalq san'atkori darajasiga ko'tariladilar. O'zbek folklori janrlari ijro usullari, ya'ni, yakka ijro, jamoa (kollektiv) ijrosi, sozli va sozsiz ijro (sozli ijroda musiqa asboblari turi va soni)ga ko'ra ham farqlanadilar. Ertak, afsona va rivoyat aytilsa, hikoya qilinsa, doston ham kuylash, ham aytishga mo'ljallangan. Lapar kuylab va raqsga tushib ijro etilsa, og'zaki drama so'z (ba'zida hatto kuy) va harakat omuxtaligi zamirida ko'rsatishga, namoyon qilishga mo'ljallangan. Latifa va lof yakka ijroda aytilsa, qo'shiqning shunday turlari borki, yakka ijroda (masalan, lirik qo'shiqlarning aksariyati, tarixiy qo'shiqlar), qolganlari yor-yorlar, o'lanlar va boshqalar jamoa (kollektiv) ijrosida kuylanadi. Askiya, lof, qo'g'irchoq o'yin ham jamoa ijrosiga mo'ljallangan.

O'zbek folklorida mavjud barcha janrlarning majmui tarixan vujudga kelgan yagona badiiy tizim (sistema) bo'lib, xilma-xil tipdagi asarlarning murakkab va o'zigagina xos aloqalari hamda o'zaro ta'siri zamirida dunyoga kelgan. Janrlar tizimining

shakllanishi va mavjudligi folklor taraqqiyotining eng muhim qonuniyatlaridan biri hisoblanadi.

O'zbek folklorining janrlar tizimi: birinchidan, ulardagi g'oyaviy badiiy prinsiplar umumiyliigi; ikkinchidan, ularning tarixan taraqqiy etgan o'zaro munosabatlariga; uchinchidan, janrlar tarixiy taqdiridagi umumiylikka (mushtarakliklarga) bog'liq holda vujudga kelgan.

I. Janrlardagi g'oyaviy-badiiy o'yin (prinsip)lar umumiyliigi (mushtarakligi) har bir janr mohiyatini belgilovchi farqli xususiyatlarga ega bo'lishiga qaramay, ularni mushtarak etuvchi tomonlar ham mavjudki, yana shu umumiylik ularni yagona tizim (sistema)ga bo'ysundiradi. Bular tubandagilardan iborat:

o'zbek xalq og'zaki poetik ijodiyotidagi barcha janrlar g'oyaviy mohiyatiga ko'ra o'zaro mushtarakdirlar. Ularning barchasida ham xalq hayoti, uning psixologiyasi, orzusi va intilishlari, tashvish va kulfatlari ifodalangan. Ana shuning o'ziyoq ularni yagona maqsadga yo'naltirgan g'oyaviy-badiiy tizimga birlashtiradi;

folklor janrlari orasidagi o'zaro aloqa ularning voqelikni tiklashdagi ko'p qirrali vazifalarining mushtarakligida ham ko'rinadi: har bir janr o'zining alohida bir vazifasiga - hayotning biror tomonini ifodalashdan iborat bo'lgan vazifaga ega. Ma'lum bir guruhga oid janrlardagi asarlar xalq tarixini ifoda etadi. Doston, tarixiy qo'shiq, rivoyat, afsona kabi janrlar ana shunday vazifaga ega. Boshqa bir guruh janrlar xalq turmushi va mehnatini ifodalashni ko'zlaydi: mehnat qo'shiqlari, marosim qo'shiqlari ana shunday xususiyatga ega. Yana bir guruh janrlar, Chunonchi, oilaviy va muhabbat qo'shiqlari shaxsiy insoniy tuyg'ularni aks ettirsa, maqollar va naqillar xalqning axloqiy qarashlari va turmush tarjibalaridan tug'ilgan saboqlarini ifoda etadi. Shu zaylda barcha janrlar bir bo'lib, xalqning turmushi, mehnati tarixi, odamlarning o'zaro ijtimoiy va shaxsiy munosabatlarini yaxlitlashgan holda aks ettiradi. Xuddi hayot hodisalarining o'zi har tomondan bir-biri bilan shu xilda bog'lanib, yagona g'oyaviy-badiiy tizimni vujudga keltiradi;

v) folklor janrlari g'oyaviy mohiyatining mushtarakligi, shuningdek, voqelikni ifodalashdagi vazifasining mushtarakligi ularda mavzu, sujet va qahramon o'xshashligi, umumiyligini yuzaga keltirgan. Maqol va ertaklarda ko'rinuvchi axloqiy

aqidalar mushtarakligidan topishmoq va ertaklardagi predmetlar umumiylikigacha, shuningdek, tarixiy qo'shiq va tarixiy rivoyatlardagi mavzu, sujet va obrazlar o'xshashligigacha - hammasida folklor hayot materialini umumlashtirib, yagona tizimga aylanadi. Bu holda tabiat hodisalari manzaralari, jasorat va kurash lavhalari va hatto qahramon tiplari o'xshashligini yuzaga keltirgan;

g) folklor janrlari uchun xalq estetik o'yin (prinsip)lari ham umumiydir: soddalik, qisqalik, ixchamlik, sujetlilik, tabiatni poetiklashtirish qahramonlar axloqiy bahosining aniqligi (ijobiy va salbiy)ni ta'minlagan;

d) xalq og'zaki ijodi janrlari badiiy tasviriy vositalar tizimining umumiylik bilan o'zaro aloqadordir: kompozitsion o'ziga xosligi (leytmotiv, mavzu birligi, zanjirsimon bog'lanish, takror tiplari), ramzlari, majoziylik, sifatlashdagi o'zgachaliklari muayyan tizimni tashkil etadi.

Tarixan muttasil taraqqiyotda bo'lgan bu tizim xalq tarixi, madaniyati turmushi va tiliga xos xususiyatlarini, milliy mentalitetini yorqin ifoda etadi.

II. Janrlarning o'zaro munosabatlariga oid mushtarakliklar. Janrlarning o'zaro munosabatlari g'oyat murakkab bo'lib, u o'zaro ta'sir, bir-birini boyitish tarzida kechadi. Janrlar aloqasi xilma-xil shakllarga ega bo'lib, bu aloqador xalq og'zaki ijodida sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Bu tubandagilardan iborat:

a) Janrlarning genetik aloqasi. Folklordagi bir janrning yuzaga kelishida ikkinchi birining manbalik vazifasini o'tashi genetik aloqaning asosiy xususiyati hisoblanadi. Chunonchi, doston janrining yuzaga kelishida xalq ertaklari manba bo'lgan, o'z navbatida esa, dostonlar zaminida tarixiy qo'shiq janri paydo bo'lgan. Fanda ancha zamonlardan beri maqol naqlning yakuniy xulosasi, axloqiy aforizm tarzida yuzaga kelganligi haqida gapiriladi. A.A.Potebnya shu fikrni qo'llasa, F.I. Buslaev kichik janrlar ertak zamirida paydo bo'lgan degan fikrni olg'a suradi. U maqol va topishmoqlar «xalq donoligi» namunalari sifatida ertakdan o'sib va ajralib chiqqan, deb hisoblaydi. Dastlab paydo bo'lgan janrlardan yangi paydo bo'lganlari tuzilishi (strukturasi)ga xos bir qator umumiy belgilarni, poetik elementlarni (lirik qo'shiqlarda ramziylik kabi), she'riy vazni va boshqa shunday belgilarni o'zlashtirib oladi. Janrlar kelib chiqishini ifodalovchi bu tadrijiy yo'l ularning o'zaro bog'langanligini ko'rsatadi.

Folklor tarixida shunday hodisalar ham borki, yangidan paydo bo'lgan janr o'zining yuzaga kelishiga manba bo'lgan qadimiy janr tarkibi va poetikasiga ta'sir ko'rsatishi, hatto uning so'nishiga sabab bo'lishi mumkin. Chunonchi, tarixiy qo'shiq doston janri zamirida yuzaga kelgan bo'lsa-da, asta-sekin uning so'nishiga ta'sir ko'rsatdi, bir janrga mansub asarning boshqa bir janrdagi asar tarkibida uchrashi. Folklor janrlarining o'zaro ta'siriga xos yana bir shakli bir janrga mansub asarning boshqa bir janrdagi asar tarkibida uchrashi hodisasidir. Chunonchi, maqolni dostonda, ertakda va qo'shiqda uchratish mumkin, u hamma joyda ham asar qahramonlari axloqini boshqarib, aforistik yakunga olib boradi. Talay ertaklarda qahramon aql-u farosatini sinash sharti sifatida topishmoqlar uchrasa, dostonlar tarkibida yig'i va yo'qlovlardan ayrim namunalar, hatto yozma adabiyotga xos janr-g'azal ham uchrashi tabiiy. «Kuntug'mish» dostonining Ergash Jumanbulbul o'g'li varianti tarkibida yozma adabiyotga xos jam — muxammasning uchrashi doston tuzilishi hamda poetikasini birmuncha boyitgan. Bir asarning bir necha janr tarkibida uchrashi. Janrlarning uzoq muddat davomida mavjudligi ularning o'zaro qo'shiluviga yoxud biror asarning biridan ikkinchisiga o'tishiga yo'l ochadi. Chunonchi, aslida yo'qlov namunasi bo'lgan tubandagi to'rtlik alia janriga o'tgan:

Nido qildim, nido qildim, alia, Seni yo'qdan bino qildim, alia. Bu yo'lda do'st-u dushmanga, alia, O'zimni oshino qildim, alia.

To'rtlikning janrdan janrga ko'chishi sababi shundaki, yo'qlov tarkibida u judolik iztirobini ifodalagan bo'lsa, allada bu motiv farzandsizlik alami mazmunini kasb etgan holda o'zaro hamohang mohiyatga egaligidir. To'y yor-yorlari va allalarining motam yor-yorlari va allalariga o'tishi ham bo'yga etgan qizu o'g'il yoki kichkintoyni ulug'lash motivining yetakchiligi zamirida yuz bergan.

2. Janrlar tarixiy taqdiridagi mushtaraklik. O'zbek folklori janrlari birdaniga va bir vaqtda yuzaga kelmagan, albatta. Folklorning eng qadimiy janrlari asotir (mif), afsona, so'z magiyasi asosidagi xalq qo'shiqlari (badik, kinna, burey-burey, afsun, olqish, qarg'ish), shuningdek, «Sust xotin», «Choy momo» singari mavsumiy marosim qo'shiqlari bo'lsa, ulardan keyingi bosqichda ertak, maqol, doston va topishmoqlar, yana keyinroq esa latifa, xalq dramasi, askiya, tarixiy qo'shiq paydo

bo'lgan. Tarixan ana shu taxlitda shakllangan o'zbek folklorining janriy tizimi o'z taraqqiyoti davomida rivojlandi: takomillashdi, boyidi va hatto ayrim janrlari so'nish jarayonlari ham kechdi va kechayotir. Shu asosda folklor taraqqiyotining turli bosqichlari turlicha janrlar tarkibiga ega bo'ldi. Natijada ayrim janrlar so'nib, folklor taraqqiyotining boshqa bosqichidagi janr bilan o'zaro munosabatga kirisha olmaydi. Chunonchi, badik yoki «Sust xotin» janrlari allaqachon so'nib ketganligidan hozirgi biror janr bilan munosabatga kirisholmaydi.

XVI - XVII asrlarda yozma adabiyotning folklorga ta'siri sezilarli bo'la boshladi. Buning oqibatida ertaklarda reallik (hayotiylik) kuchaya bordi va XX asrga kelib, xalq ijodida ertak yaratish an'anasi butunlay to'xtadi, aksincha yozma adabiyotda adabiy ertak janri qaror topayotir. Bularning barchasi folklor taraqqiyotiga xos umumiy qonuniyatlar zahirida kechdi.

I.2. Innovatsion texnologiya hamda o'qish darslarining ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati

U nima uchun bugungi ta'lim tarbiya jarayonida zaruratga aylandi? Nega endi shuncha yillardan beri yarab kelgan ta'lim jarayonini loyihalashga yangicha yondashish zarur?

Zamonaviy pedtexnologiyalarni boshlanich maktabda ta'lim tarbiya jarayonida qo'llashning dolzarb muammolari. Innovatsiya (inglizcha - innovation) yangilik yaratish. Ya'ni, an'anaviy ta'limdagi kabi bir xil shablonlar asosida emas, balki yangiliklar asosida ta'lim jarayonining ta'sirchanligini oshirishga qaratilgan ish usul va shaklidan foydalanish demakdir. Ma'lumki, boshlanich ta'limiga innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlarni tadbqiq etishi ta'lim samaradorligi va tasirchanligini oshiradi, o'quvchilarning o'qish motivlarini ustiradi. Ta'lim jarayonini innovatsion metodlardan foydalanib tashkil etish uchun, avvalo, darsning rejasi va loyihasi aniq ishlab chiqilishi zarur. Dars loyihasini tuzishda o'qituvchi o'zining ish shakllari va o'qituvchilarning ko'nikmani egallash jarayonidagi ishlari doirasini aniq belgilab olishi lozim. Bunda ko'proq interfaol metodlarga e'tiborni qaratish ta'lim samaradorligini oshiradi.

Interfaol (inglizcha interaction, ya'ni, inter - aro, o'zaro; ast - harakat ma'nosini bildiradi). Interfaol usullar - bu o'zaro harakat, yani hamkorlik asosida o'qitish va tarbiyalashdir. Ularning 4ta asosiy turi mavjud. Bular:

- kognitiv usullar;
- o'yinlar, eksperimental faoliyat;
- ishbilarmonlik o'yinlari, modellashtirish;
- amaliyot orqali o'qitish, bevosita faoliyat.

Bunday usullarning barchasida ham o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlik, o'quvchining ta'lim jarayonidagi faol harakati ko'zda tutiladi.

Zamonaviy pedtexnologiyalar – pedagogik amaliyotida keng qo'llaniladigan texnologiyalar, ulardan foydalanishda olgan natijalar oldindan ma'lum (misollar: aqliy xujum, baxs, munozara, o'yinlar

usullari).

Yangi pedtexnologiyalar - hozirgi paytida vujudga kelgan, amalda keng sinab olinmagan, ulardan foydalanishda kutilayotgan natijalari hali ma'lum emas bo'lgan texnologiyalar. Ular pedagogik amaliyotga endi kirmoqda (misollar: modul texnologiyalar, masofada o'qitish texnologiyalar).

Ilg'or pedtexnologiyalar – zamonaviy pedtexnologiyalardan eng samarali, keng tarqalgan, ularning natijalari oldindan ma'lum (misollar: bx.b.b. usuli, egri-bugri, zanjir, qarorlar shajarasi usullari).

har bir o'qituvchi pedtexnologiyalarni 3 ta guruhga bo'lishini bilishi kerak:

-ommaviy tarzda ishlash uchun pedtexnologiyalar («b.b.b.» usuli, zanjir, aqliy xujum, klaster, baxslar, muzyorar va boshqa usullar);

- kichik guruhlarda ishlash uchun pedtexnologiyalar (bog'lovchi munozara, egri-bugri, qarorlar shajarasi va boshqa usullar);

-yakka tarzda ishlash uchun pedtexnologiyalar (insert, 2 qismlilik kundalik, esse va boshqa usullar).

Bugun kichik maktab yoshidagi bolalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi chet el metodlaridan ("Breyn ring") qator ta'lim muassasalarida foydalanishmoqda va yaxshi natijalarga erishilmoqda.

Shu bilan bir qatorda hali-hanuz "boshlanich maktabda pedagogik texnologiya nima degani?" deb hayratda yurganlar ham kam emas.

Shu o'rinda pedtexnaologiyalarni loyixalashning boshlanich ta'lim muassasalari uchun o'ziga xos tomonlarini ko'rsatib o'tish joizdir:

1) har bir mashg'ulotdan ko'zda tutilgan maqsad aniq o'rnatiladi;

2) mashg'ulot mazmunini saralashda, bir tomondan - bolalarning qiziqishi, e'tiyoji, qobiliyatlari, ikkinchi tomondan - tarbiyachining ijodkorligi, mahorati, uchinchidan - maktabdagi mavjud shart-sharoitlar hisobga olinadi;

3) didaktik jarayon tuzilmasi keskin farqlanadi, ya'ni uning

motivasion bosqichi kuchaytiriladi. Boshqacha qilib aytganda o'yinli didaktik jarayon loyihalananayotgan texnologiyaning asosini tashkil etadi; didaktik jarayonning ikkinchi bosqichi - bolalarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etadi;

4) uchinchi bosqich - boshqaruv faoliyati funksiyasi ham o'zgaradi.

Agar o'quv jarayonida o'qituvchi o'quvchining bilish faoliyati bosqichiga aralashmaydigan bo'lsa, tarbiyachi faoliyati didaktik jarayonning o'quv-bilish faoliyatida ham ustuvorlik kasb etadi;

5) texnologiyalarni qo'llash samarasi yoki yakuniy natija - bu bola shaxsini rivojlantirish ekanligiga tarbiyachi alohida e'tibor qaratishi lozim. Bola tarbiyasi jarayonining sust, harakatsiz obyekt bo'lib qolmasdan, balki faol ishtirokchisiga - suboyektga aylanishi kerak.

Boshlanich maktabda o'yin faoliyat ustuvorlikka ega bo'lib, bolaning ruhiy jihatdan rivojlanishini bir qadar tezlashtiradi.

O'yin bolalar yaxshi o'zlashtira oladigan faoliyat hisoblanib, bu faoliyat jarayonida ular o'qishga, mehnatga, badiiy ijodga oid hayotiy muamoiarni tezda ilg'ab oladilar. Shu boisdan o'yinga tayanib ish ko'rish - bolani tarbiyaviy tasirga hayajonli javob berishni taominlash usulidir.

O'yinli vaziyatlardan maqsadli foydalanish g'oyasi bir-muncha ilg'or va samaralidir. Turli yoshdagi odamlar faoliyatini o'yin tarzda tashkil etish va kasb ma'oratini takomillashtirish tajribasi pedagogika fani uchun yangilik bo'lmasa-da, o'rinli didaktik jarayonini loyi'alah texnologiyasi yetarlicha ishlanmagan. Mavjud adabiyotlarda o'yinning ishbilarmonlik, roli, ishlab chiqarish, tadqiqotchilik va o'qishga oid turlari mohiyati va mazmuni uchrab turadi, biroq ular o'yinga qo'yiladigan asosiy talablarga javob bermaydi, ya'ni: o'yin jarayonining kuchaytirilgan va turg'un motivasiyasi, o'yinning bajaruvsh bosqichida ishtirokchilarning muvaffaqiyatga erishishi va qanoat hosil qilishi bilish faoliyatini maqsadli boshqarish va o'yin so'ngida faoliyati o'zlashtirish sifatining ta'minlanishiga erishish.

Kichik maktab yoshli bolalar uchun o'yinning quyidagi turlari

mavjud: mavzuli-rolli o'yinlar, o'yin-mehnat, didaktik o'yinlar, harakatli o'yinlar, sair-tomosha o'yinlari, majmualiy bayram o'yinlari. Mavzuli-rolli o'yinlar o'quvchilarning mustaqil yoki kattalar yordamida ijtimoiy tajribani, milliy oboyektni, hayotiy va badiiy taassurotlar asosida ijodiy (kasha ?) yaratish faoliyatidir. Bu faoliyag natijasida bolalar ichki fikrlashi, hayol surishi va boshqa axloqiy sifatlari tarkib topadi. Buning uchun bola yoshiga xos kichik hajmdagi hayotiy mavzular sahna ko'rinishida ijro etiladi. Misol uchun, "bozor" sa'nasini ijro etishi bilan bolalar yangi tushuncha va munosabatlarga (haridor, sotuvchi, narx, savdo, qiymat, pul va boshqa) duch kelishadi va ularni bemalol o'zlashtiradilar.

O'yin-me'nat jarayonida bolalar atrofdagi olam to'g'risida chuqurroq tasavvurga ega bo'ladi, ushbu jarayon va harakatlarni umumiy ko'rinishini o'rganadilar, shuning uchun ular qurish, kanallar qazish, konstruktordan mashinalar, ish qurollari yasash kerak va hokazo. Didaktik o'yinlar o'quvchilarning aqliy rivojlanishida, ularni bilishga undashda birmuncha afzalliklarga ega. Bu o'yinlar o'qituvchi-tarbiyachi tomonidan o'quv-tarbiyaviy maqsadlar uchun maxsus tashkil etiladi. Foydalanilayotgan materiallar turiga qarab didaktik o'yinlar predmetli-didaktik o'yinchoqlar va materiallar; mantiqiy — "qiyin sayohat", "labirant"; so'zli - o'yin: topishmoqlar, masalalar, o'yin -sayohatlar va boshqa harakatli o'yinlar bolalarni tarbiyalashda muhim vosita sanaladi.

Ular har doim o'yin ishtirokchilaridan faol sensorli va harakatlarni o'rnatilgan maqsadga erishish uchun bajarishni talab etadi. Musobaqa tarzida tashkil etilgan bu tur o'yinlar bolalarda ijodkorlik, epchillik, tezkorlik, zehnlilik kabi sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

O'yin turlarini tanlash bevosita o'quvchilar yoshiga boliq ekanligini takidlash joiz. Misol uchun, 7 yoshli bolalar uchun o'yin mazmun jihatidan ahamiyat kasb etmaydi, balki ularga ba'zi bir "jo'yali" topshiriqlar

berilishi lozim: bayroqni olib kel, dustingni yonida tur va hokazo.

O'yinning asosiy funksiyasi darsni tashkil etish shakli sifatida bolalarni bilishga oid faoliyatga jalb etishdir. Shu boisdan "xayoliy orol"ga sayo'at, multfilmda sevgan qa'ramonlarining harakatlarini kuzatish, topishmoqlar aytish, bolalar bayramlari kabi o'yinlar bola shaxsiyati mazmunini ochib berishga, uning faoliyatini rivojlantirishga, umumiy qiziqish va fikrlar mushtaraqligi asosida ularni jipslashtirishga imkoniyat beradi.

Shunday ekan, boshlangich ta'limga innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlarni tadbiq etishi ta'lim samaradorligi va ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarning o'qish motivlarini o'stiradi.

Lekin, pedagogik amaliyot ko'rsatganidek, zamonaviy

pedtexnologiyalarni amalda qo'llashda quyidagi muammolar yuzaga keladi:

- ko'pkina o'qituvchilar nazariy ji'atdan pedagogik texnologiyalar haqida aniq tassavurga ega emas;
- ular interfaol usullarni anoanaviylardan ajrata olishda qiyinaladi;
- o'z amaliyotida ular bir xil texnologiyalardan foydalanadi hamda ularni eskicha qo'llaydi (masalan, aqliy xujumni oddiy suxbatga uxshatadi, kichik guruhlar o'rniga sinfdagi 3 qator ishlatadi), o'quvchilarni joylashtirishda shakllarni tanlash masalasida kiyinaladi va hokazo.

Bularni bartaraf etish uchun maktablarda quyidagi ishlarni olib borish kerak:

- o'qituvchilar uchun uslubiy seminarlarni uyushtirish, unda pedtexnologiyalar, ularning turlari haqida nazariy bilim berish;
- o'qituvchilarning o'zaro darsga kirishini, tajriba almashishni tashkil etish;
- ular o'rtasida ommaviy axborot vositalarida pedtexnologiyalarni amalda qo'llash bo'yicha ilg'or tajribalar haqida chop etilgan maqolalarni muhokama qilishni uyushtirish;
- o'qituvchilarning muammoga oid zamonaviy ilmiy va uslubiy adabiyot-

larni o'rganishni tashkillash va hokazo.

Xulosa qilib aytsak, yangi ta'lim tizimi, mazmuni, o'quv reja, darsliklar asosida o'quv jarayonini loyihalashtirishga ham yangicha yondashish, tashkil etish zarurati tug'ilmoqda.

Prezidentimiz Islom Karimov alohida ta'kidlaganlaridek, biz “mamlakatimizning istiqboli yosh avlodimiz qanday tarbiya topishiga, qanday ma'naviy fazilatlar egasi bo'lib voyaga etishiga, farzandlarimizning nechog'li faol munosabatda bo'lishiga, qanday oiliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog'liq ekanini hamisha yodda tutishimiz kerak”. Shu sababli ham birinchi navbatda ta'lim mazmuni va uning tarkibini kengaytirish va chuqurlashtirish xususan, bu mazmunga nafaqat bilim, ko'nikma va malaka, balki umuminsoniy madaniyatni tashkil qiluvchi – ijodiy faoliyat tajribasi, tevarak – atrofga munosabatlarni ham kiritish g'oyasi kun tartibiga ko'ndalang qilib qo'yildi.

Respublikamizda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, ta'lim innovatsiyalarini to'plash, ular ichidan faoliyatimiz uchun eng samaralilarini tajriba – sinovlardan o'tkazish va o'quv jarayoniga joriy etishning universal tizimi (mexanizmi) shakllantirilmaganligi uchun, o'tgan asrda o'zlarining olamshumul pedagogik tajribalari orqali pedagogika fani va o'qitish metodikasi sohasida ulkan yutuqlarga erishgan novator–o'qituvchilarning qo'llagan pedagogik texnologiyalari hozirgi kunda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yaqin o'tmishda mumtoz pedagogikaning yorqin vakillari A.S.Makarenko, S.T.Shaskiy, B.A.Suxamlinskiylar bilan bir qatorda V.F.Shatalov, S.N.Lisenkova, E.I.Il'in, Sh.A.Amonashvili, Mamajon Abdurasulov kabi navator o'qituvchilar jahon o'qitish amaliyoti va pedagogik texnologiyalar sohasida ulkan ishlarni amalga oshirdilar. Lekin, ular qoldirgan pedagogik xazinalar keyingi yillarda bir muncha e'tibordan chetda qoldi.

Ta'lim jarayoni nihoyatda murakkabdir. Ta'lim samaradorligi pedagog va o'qituvchi faolligiga, ta'lim vositalarining mavjudligiga, ta'lim jarayonining tashkiliy, ilmiy, metodik mukammalligiga, jamiyatda ilmiy kishilarga bo'lgan

ehtiyojga va boshqa hali aniqlanmagan omillarga bog'liq jamiyat o'zining ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy ehtiyojlari asosida ta'lim samaradorligi yuqori bolishini talab etadi.

O'zbekistonda bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiy strukturalar yaratilayotgan hozirgi kunda keng, chuqur bilimli va bilimlarni amalda qo'llay oladigan shaxslarga talab kuchayib bormoqda. Bilimdon va tadbirkor, ijtimoiy faol shaxs jamiyat hayotida, mehnatda o'zining o'rnini topadi. O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov "... Shuni yaxshilab tushunib olishimiz zarurki jamiyatimizni yanada demokratiyalashtirish va fuqarolik institutlarini shakllantirish, avvalo, aholi siyosiy, ijtimoiy va davlat hayotida nechog'lik faol ishtirok etishi bilan uzviy bog'liq" deb ko'rsatdi. Bunday faollik vujudga kelishi uchun bilimdon va harakatchan, milliy istiqlol g'oyasiga sodiq bo'lgan shaxsni shakllantirish kerak.

Ta'limning barcha bo'g'inlarini shunday tashkil etish kerakki, u yoshlarga chuqur va asosli bilim berish bilan birga keng qamrovli fikrlashga o'rgatsin. Ta'lim jarayonida o'quvchida mustaqil bilim olish ehtiyoji shakllanib boorish kunning talabidir.

Pedagogik amaliyot va tadqiqotda qator ish usullari qo'llab ko'rildi. Ta'limni muammoli tashkil etish, ta'limda o'quvchilarni faollashtirish, hamkorlik pedagogikasi, tayanch so'zlarga asoslanish, ta'limni optimallashtirish va boshqalar tajribadan o'tdi. Lekin bu pedagogik vositalar ayrim o'qituvchilarda samarali natija bersa ham, uni ommaviy yo'sinda ta'lim tizimiga kiritib bo'lmaydi.

Hozirgi kunda pedagogik matbuot sahifalarida, maorif xodimlarining nutq va ko'rsatmalaridan pedagogik texnologiyani joriy etish haqida fikrlar bayon etilmoqda. Pedagogik texnologiya bo'yicha turlicha fikrlar ilgari surilgan.

Pedagogik texnologiyaning asosiy mohiyati ta'limda o'quvchilarni qiziqtirib o'qitish va bilimlarni to'liq o'zlashtirishga erishishdir. Ta'limda berilayotgan bilimlarni o'quvchilarning aksariyat qismi puxta o'zlashtirishi pedagogik texnologiya joriy etilishining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Bilimni ta'lim olayotgan barcha o'quvchi to'liq o'zlashtirishiga erishish mumkinmi?

Chet el olimlarining tekshirishiga ta'lim olayotgan guruhdagi 5% o'quvchi dastur talabidan ilgari bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu guruhdagi 5% o'quvchining esa dasturni umumiy tartibda o'zlashtirishga kuchi yetmaydi. Demak o'qituvchi sinfdagi 95% bola bilan muvaffaqiyatli ishlay oladi.

Dasturdagi bilimlar hajmining 70% ni o'quvchilarning barchasi o'zlashtirsa, to'liq o'zlashtirishga erishildi deb hisoblash mumkin. Chunki olimlarning fikricha shu darajada bilimga ega bo'lgan o'quvchi qolgan ma'lumotlarni mustaqil o'zlashtirish imkoniyatiga erishadi.

Pedagogik texnologiya ta'lim jarayonida o'quvchiga zug'um qilmay, ularni qiziqtirib o'qitishni, o'quvchilar o'zidagi barcha fikrlarni bayon etishga imkoniyat yaratishni tavsiya etadi. Pedagogik texnologiya bilim olish jarayonida o'quvchilar yoqimli ruhiy holat bo'lishini, qiziqib ishlash tashkil etishni talab etadi.

Pedagogik texnologiya asosida dars o'tishda eng asosiy talab o'qituvchining hayotiy tajribasi, avval o'zlashtirgan bilimlari va qiziqishlari asosida bilim berishni ko'zda tutadi. Pedagogik texnologiya o'rganilayotgan soha bo'yicha o'quvchilarda bilim etarlicha bo'lmagan holda ham o'quvchida salbiy kechinmaga o'rin qoldirmaslikni, bu bolaning aybi emasligini tan olishni talab etadi. Faollik ko'rsatilsa, bilimlarni o'zlashtirib olishga o'quvchilarda ishonch hosil qilish tavsiya etiladi.

Mavjud pedagogika fanida dars jarayoniga oid berilgan ma'lumotlarda e'tibor ko'proq yangi bilimlarni bayon etish, uni mustahkamlash va natijasi hisob olishga qaratilgan. Bilim berishda o'quvchining avvalgi bilimlari, hayotiy tajribasi yetarligi hisobga olinmagan. Dars rejasida avval o'tilgan mavzuni yakunlab, yangi mavzuga bog'lash taklif etilgan. Lekin shu yangi o'tilayotgan mavzu bo'yicha bolaning bilimini aniqlash, mavzuga asos bo'ladigan dastlabki ma'lumotlarni berish yetarlicha amalgam oshirilmagan.

Pedagogik texnologiya o'quvchilarning o'rganilayotgan soha bo'yicha bilimlarini esga tushurish, jonlantirish yangi bilimni o'zlashtirishga asos bo'ladi deb ko'rsatadi. Bilimlar va tayyorgarlikni aniqlash o'quvchini faollashtirish va bilim o'zlashtirishga ijobiy motivni keltirib chiqaradi.

5-sinf uchun chop etilgan “Adabiyot” darsligi “Adabiyot nima?” degan matn bilan boshlanadi. Shu darsni o‘tishda o‘qituvchi adabiyot haqida, adabiyot turlari haqida, qanday adabiy asarlarni o‘quvchilar o‘qiganliklari va ulardan olgan taassurotlari haqidagi suhbatdan boshlashi kerak. Bu suhbat jonli, qiziqarli bo‘lishi bilan birga o‘quvchilardan “san’at” tushunchasini, san’at turlari haqidagi o‘quvchilar bilimini yoritishga qaratilgan bo‘lishi kerak. O‘qituvchi suhbat davomida o‘quvchilarga she’riy, dramatik va proza shaklida yozilgan asar namunalari ko‘rsatish dars jarayonini jonlantiradi va pedagogik qiymatini oshiradi.

Ayrim darsliklarda (7-sinf uchun “Turkiston tabiiy jug‘rofiyasi”) mavzuni o‘rganishga kirishishdan avval mukoma etilishi kerak bo‘lgan savol va topshiriqlar berilgan. Bu darslik mualliflari (P.G‘ulomov, N.Vahobov va A.Xasanov) pedagogik texnologiyani dars tadbiiq etishga qo‘ygan qadamlaridir. O‘qituvchilar darsda shu topshiriqlardan foydalanishlari bilan birga ularga qo‘shimcha materiallar topishlari mavzuni o‘rganish samaradorligini oshiradi. Mavzuni o‘rganishga kirishishda erkin suhbat, munozara, aqliy hujum, o‘quvchilar bilimini kichik bayon va boshqa shakllarda jonlantirish mumkin. Biz maqolada pedagogik texnologiyaning faqat bir muammosi haqida, ya’ni bilim o‘zlashtirishga da’vat qismi haqida fikr kiritdik. O‘ylaymizki o‘qituvchilar bu sohada keng fikr yuritib, yangi ish usullarini topishadi va amaliyotga tadbiiq etiladi.

Sinfda o‘qish darslarining ta’lim-tarbiyaviy ahamiyati hamda vazifalari o‘qish inson hayotida muhim ahamiyatga ega. O‘qish orqali inson borliq, jamiyat haqida bilimga ega bo‘ladi, o‘qishni bilmagan odamning ko‘zi ojiz kishidan farqi yo‘q. Boshlang‘ich sinfda o‘qish faoliyati barcha fan darslarida amalga oshiriladi. Lekin o‘qishga o‘rgatishning yo‘l-yo‘riqlarini o‘qish metodikasi ishlab chiqadi. O‘qish metodikasining kichik yoshdagi o‘quvchilarning umumiy rivojlanishi, psixologiyasi, xususiy metodika sohasidagi yutuqlar bog‘liq fanlar yutug‘i asosida shakllanib boradi. Masalan, eski maktablarda o‘qish quruq yod olish metodida o‘rganilgan bo‘lsa, hozirgi maktablarda o‘qish izohli o‘qish metodida olib boriladi. yod olish metodida matndagi so‘zlarga izoh berishga, mazmunini tushuntirishga, o‘qilganni qayta hikoyalashga, umuman olganda, o‘qishning ongli bo‘lishiga mutlaqo e’tibor

berilmagan. Ularda ko'proq to'g'ri talaffuzga, qiroat bilan o'qishga, ifodali o'qishga katta e'tibor berilgan.

Hozir maktablarda o'qish izohli o'qish metodida olib borilyapti. Izohli o'qishga keyingi ma'ruzalarda to'xtalamiz. O'qish darslarida o'quvchilar tabiat, jamiyat, unda yashovchi kishilar hayoti, ularning o'tmishi, hozirgi yashash tarzi, mashhur kishilari haqida, vatanning tabiati; ob-havosi, boyliklari, hayvonot dunyosi va boshqalar haqidagi bilimlarni egalaydilar. Bilim olish jarayonida ularga nisbatan munosabat uyg'onadi. Bilim berish bilan o'quvchi shaxsi tarbiyalanib boradi.

V.A.Suxomlinskiy bu haqida shunday deydi: "Bolalar dunyoni va o'z-o'zini bila borish bilan birga katta avlodlar yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklar uchun o'zining mas'ulligini oz-ozdan bila borishlari kerak... bolaga yaxshilik va yomonlikni to'g'ri ko'rish imkonini berish kerak. Yaxshilik unda quvonch, zavq, hayajon, ma'naviy go'zallikka erishish ishtiyoqini hosil qiladi; yomonlik qahr-g'azab, murosasizlik uyg'otadi, haqiqat va adolat uchun kurashga chorlovchi ma'naviy kuchga to'ldiradi"..

(1-4- sinf "O'qish kitobi" da berilgan asarlar misolida ochib beriladi).

Sinfda o'qish darslari quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. O'qish malakasini takomillashtirish. O'quvchilarda yaxshi o'qish sifatleri: to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish.

2. Bolalarda kitobga muhabbat uyg'otish, kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimni olishga, ya'ni kitob bilan ishlashni biladigan, chuqur fikrlovchi, sermulohaza kitobxonlarni etishtirish.

3. O'quvchilarni tevarak-atrof, borliq haqidagi bilimlarini kengaytirish, dunyoqarash elementlarini shakllantirish.

4. O'quvchilar axloqiy-estetik va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash.

5. O'quvchilarni nutqini va tafakkurini o'stirish.

6. Adabiy tasavvur elementlarini shakllantirish.

Bu vazifalarni bajarishning aniq yo'li bo'lishi zarur.

Yaxshi o'qish malakalarining sifatleri va ularni takomillashtirish yo'llari.

Yaxshi o'qish malakalarining sifatlariga to'g'ri, tez, ongli va ifodali o'qish kiradi va ular o'qish darslarida o'zaro bog'liq holda takomillashtiriladi, bu to'rt o'qish sifati bir-biri bilan uzviy bog'liq. Ongli o'qish asosiy hisoblanadi, chunki o'quvchi o'zi o'qisa-yu, o'qiganini anglamasa, bunday o'qish talabga javob bermaydi, o'qiganini tushunmaslikka olib keladi. To'g'ri o'qish ongli o'qishga xizmat qiladi. Tez, to'g'ri, ongli o'qish ifodali o'qishning asosi hisoblanadi.

Yaxshi o'qish sifatlarini egallash maktabda barcha fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishning sharti hisoblanadi.

O'qish malakasi murakkab malaka bo'lib, uning shakllanish jarayonini metodist T.G.Egorov 3 bosqichga bo'ladi:

1. Analitik bosqich (o'qish). Savod o'rgatish jarayoniga to'g'ri keladi. Unda bolalarda so'zlarni bo'g'inlab o'qish malakasi shakllantiriladi.

2. Sintetik bosqich (o'qish). Bu bosqichda so'zni sidirg'a o'qish malakasi shakllantiriladi. Bunda so'zni ko'rish bilan uning tovush tomoni idrok qilinadi. So'zning talaffuzi bilan ma'nosini anglash mos keladi. Sidirg'a o'qishga asosan o'quvchilar 3-sinfda o'tadilar.

3. Avtomatlashgan o'qish. Bu o'qishda o'quvchi-kitobxon so'zning bosh qismiga qarab o'qib ketaveradi. O'qishning keyingi yillariga to'g'ri keladi. 4-sinfda ba'zi o'quvchilar o'qishi avtomatlashadi.

O'qish darslari shunday tashkil qilinishi kerakki, mazmunini tahlil qilish yaxshi o'qish malakalarini takomillashtirishga yo'naltirilsin.

Yaxshi o'qish malakasining sifatlaridan biri to'g'ri o'qishdir. To'g'ri o'qishga bir nechta metodist olimlar ta'rif berganlar:

K.Qosimova: to'g'ri o'qish xato qilmasdan, yanglishmasdan o'qishdir. SHu ta'rifni kengaytirib: to'g'ri o'qish so'zning tovush-harf tarkibini, grammatik shaklini buzmasdan, so'zdagi biror tovush yoki bo'g'inni tushirib qoldirmasdan, ortiqcha tovush yoki bo'g'in qo'shmasdan, harflarning o'rnini almashtirmasdan, so'zning urg'usiga rioya qilib o'qish to'g'ri o'qishdir.

M.Odilova, T.Ashrapova: "Adabiy talaffuz normalariga qo'yilgan barcha talablar to'g'ri o'qish ko'nikmasiga ham taalluqlidir", deyishadi. Demak, ularning

fikricha, materialni adabiy talaffuz normalariga rioya qilgan holda o'qish **to'g'ri o'qish** deyiladi.

Rus metodisti Yakovleva: "To'g'ri o'qish bu materialni tovush tomonidan xatosiz va bir tekisda ravon nusxa ko'chirishdir".

Har 3 ta ta'rifning mohiyati bir xil. Ya'ni to'g'ri o'qish so'zning tovush tarkibini grammatik shaklini buzmasdan, adabiy-orfoepik talaffuz normalari asosida o'qishdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari to'g'ri talaffuz bilan matn ma'nosini puxta sintez qilishga qiynaladilar. O'qish ko'nikmalarini takomillashtirish uchun asar ustida ishlashni o'qitish bilan birga amalga oshirish zarur.

O'qish jarayonida xatolar turli sabablarga ko'ra kelib chiqadi:

1. So'zni talaffuz qilish bilan uning ma'nosini tushunish o'rtasida puxta sintez bo'lmagani uchun, ya'ni bola oldin so'zni tovush tomonini ko'radi, uni talaffuz qilishga harakat qiladi va ma'nosini e'tibordan chetda qoldiradi.

2. So'zlar ko'p bo'g'inli (murakkab bo'g'in tuzilishidagi so'zlarni o'qishda), ya'ni so'zning tovush tarkibi murakkabligi uchun tez o'qiyman deb xatoga yo'l qo'yadilar.

3. To'g'ri o'qish yorug'likka, matn shriftiga, bolaning ko'ruv sezgisiga ham bog'liq.

To'g'ri o'qishni ta'minlash uchun o'qituvchi quyidagilarga rioya qilishi kerak:

1. Matnni o'qishdan avval o'qilishi qiyin, tuzilishi murakkab so'zlarni, birikma va gaplarni aniqlashi, ular ustida ishlash usullarini belgilab olishi lozim.

2. Ma'nosi tushunarsiz so'zlarni aniqlashi.

3. Matnni yaxshi, o'rta, yomon o'qiydigan o'quvchilarga o'qitiladigan qismni oldindan belgilab chiqishi.

4. O'qituvchi yoki sinf o'quvchilarining nazorati ostida o'qishni doimiy mashq qildirishi.

5. Xato qilishi mumkin bo'lgan o'rinni belgilab olishi.

Xato o'qishni bartaraf etish:

1. Tuzilishi murakkab so'zlarni xattaxtaga yoki kartonga bo'g'inlarga bo'lib yozish, oldin o'quvchilarga ularni bo'g'inlab, so'ng sidirg'a o'qishni mashq qildirish.

2. So'z ma'nolarining sinonimini, antonimini keltirib yoki gap ichida qo'llab tushuntirishi.

3. Xatcho'pdan foydalanish. Xatcho'p diqqati tarqoq bolaga, ko'ruv sezgisi past o'quvchiga juda foydali.

4. Xato o'qishi mumkin bo'lgan o'rindan o'quvchini ogohlantirish.

5. Kesma harf va kesma bo'g'indan foydalanish.

6. To'g'ri o'qish uchun sharoit yaratish.

7. SHivirlab va ichda o'qishdan foydalanish

O'quvchilar yo'l qo'yadigan xatolar 2 xil:

1. So'z ma'nosini noto'g'ri anglashga olib keluvchi xatolar (urg'uni noto'g'ri qo'yib o'qish tufayli).

2. So'zlarni o'qib olishga xalal beradigan xatolar.

Xatoni quyidagicha to'g'rilash usulidan foydalaniladi:

1. So'z oxiridagi qo'shimchani noto'g'ri o'qisa, o'qishdan to'xtamasdan to'g'rilash.

2. O'qish paytida gapning mazmuni buzilib ketsa, o'qib bo'lgach qaytadan o'qitish yo'li bilan to'g'rilash.

Yaxshi o'qish malakasining sifatlari tez o'qish, ongli o'qish, ifodali o'qish, o'qish turlari.

K.D.Ushinskiy tez o'qish matnni tushunishdan ajralib qolmasligi lozimligini ta'kidlaydi. O'qish tezligi matnni tushunish tezligi bilan muvofiq ravishda o'qishi kerak. Tez o'qish ongli idrok etishni ta'minlaydigan o'qishdir. Og'zaki nutq tempiga mos keladigan o'qish tempi normal tezlik hisoblanadi. O'ta tez o'qish va o'ta sekin o'qish matn mazmunini tushunishni qiyinlashtiradi. O'qish tezligi bir daqiqada o'qiladigan so'zlar miqdori bilan belgilanadi.

Tez o'qishni ta'minlovchi yo'llar:

1. O'qishni turli topshiriqlar asosida mashq qilish.

2. O'qishga qiziqish uyg'otish.

3. Rollarga bo'lib o'qitish.

Dialoglarni 2 o'quvchiga o'qitish: 1) oldin tez o'qiydigan o'quvchiga 2) keyin sekin o'qiydigan o'quvchiga;

4. Matnni navbat bilan o'qitish.

Ko'pincha o'quvchilar tez o'qiyman deb xatoga yo'l qo'yadilar.

O'quvchilarning o'qish sur'ati bir daqiqada sinflar bo'yicha quyidagicha:

1-sinf: 1 yarim yillikda bo'g'inlab o'qiydi.

1- yarim yillik oxirida notanish matndan 20-25 so'z.

2-sinf: 1-yarim yillikda 25-30 so'z.

2-yarim yillikda 40-50-so'z.

3-sinf: 1-yarim yillikda 50-60 so'z.

2-yarim yillikda 65-70 so'z.

4-sinf: 1-yarim yillikda 70-80 so'z.

2-yarim yillikda 80-90 so'z.

Ongli o'qish asar mazmunini, asarning g'oyaviy yo'nalishini, timsollarini, badiiy vositalarini rolini tushunib o'qish ongli o'qish deyiladi. Bola asarda tasvirlangan voqea-hodisalarga munosabat bildira olsa, ongli o'zlashtirgan bo'ladi.

Ongli o'qish quyidagi metodik shartlarga bog'liq:

1. O'quvchining hayotiy tajribasiga.
2. So'zlarning lug'aviy ma'nosini tushunishga.
3. Gapda so'zlarning bog'lanishini tushunishga.

Ongli o'qish 2 xil ma'noda qo'llanadi. 1) o'qish texnikasi; 2) o'qish sifati.

Asar qurilishini tushunish ongli o'qishdir. O'quvchining ongli o'zlashtirib o'qigani uning ifodali o'qiganidan, asar yuzasidan berilgan savollarga javobidan aniqlanadi. Ongli o'qish bilan ifodali o'qish biri ikkinchisini taqozo etadi.

Ifodali o'qish. Asarni uning g'oyasiga, yozuvchining niyatiga mos ravishda, o'qish, asar jozibasini ifodalab, ravon aniq, to'g'ri o'qish ifodali o'qish deyiladi. Ifodali o'qish adabiyotni aniq va ko'rgazmali o'qitishning dastlabki va asosiy formasidir. O'qituvchi ifodali o'qish orqali asar mazmunini va emosiionalligini o'quvchilarga ko'rgazmali ravishda etkazadi.

Intonasiya – urg’u, temp, ritm, to’xtam, ovozning baland-pastligining yig’indisi. Bular og’zaki nutq elementlaridir. Bu orqali qahramonlarining turli kayfiyatlari, ichki kechinmalari ifoda etiladi.

Ifodali o’qishni egallashning asosiy shartlari:

1. Nafasni to’g’ri olish va to’g’ri sarflash.
2. Tovushlarni aniq talaffuz qilish, burro gapirish.
3. Adabiy talaffuz normalarini egallash.

Bular ifodali nutqqa ham taalluqli. Ifodali o’qish shartlaridan yana biri ovozning baland-pastligi, yoqimlilik, uni o’rnida asar mazmuniga mos holda o’zgartira olishlik.

Ifodali o’qishga tayyorlanish shartli ravishda uch bosqichga bo’linadi:

1. Qaxramonlarning xatti-harakatini tahlil qilish, g’oyasini belgilash, badiiy vositalarning vazifasini tushunish. Demak, asar tahlili ifodali o’qishni ta’minlaydi.
2. Pauzaning, urg’uning o’rnini, nutq tempini belgilab olish.
3. O’qishni mashq qilish.

Avvalo, o’qituvchi ifodali o’qish namunasini ko’rsatish zarur. Ifodalilik ko’rgazmalilik demakdir.

II:BOB. DOSTON VA UNING TARBIYAVIY AHAMIYATI HAQIDA

II:1. Kichik yoshli o'quvchi – kitobxon sifatida

O'qituvchi o'quvchilardagi adabiy tushunchalarning rivojlanish bosqichlarini bilmasdan turib, ta'limda usullarni qo'llash samarali natijalarga erisha olmaydi. Psixolog olimlarning fikricha, o'quvchi o'z rivojida turli bosqichlarni – kichik (10-12 yosh), katta (13-14) va o'spirinlik (15-17 yosh) davrini boshdan kechiradi.

O'quvchilarni adabiy tushunchalarning rivojlanishi ma'lum sinfda o'qishiga ham mos bo'ladi. Ya'ni kichik o'smir V-VII sinflarda , katta o'smir VIII- IX va o'spirin X-XI sinflarda o'qiydi.

O'quvchilar o'smirlik davriga ko'ra shartli suratda guruhlariga bo'linadi. Chunki insonda ma'naviy rivojlanish bir me'yorda davom etmaydi. Uning ichki rivoji faqat yoshiga emas, balki u tarbiyalayotgan ijtimoiy , oilaviy muhitga va uning shaxsiy xususiyatiga ham boq'liqdir.

Ma'lumki, har bir sinfda adabiyotni turli darajada o'zlashtiruvchi o'quvchilarni uchratish mumkin; ayrim o'quvchilarning adabiyotni o'zlashtirish q'obiliyati boshqalarga qaraganda yaxshi rivojlangan , ayrimlarida bo'sh rivojlangan bo'ladi. Ammo bir xil yoshda va bir sinfda o'qiyotgan o'quvchilarning bunday xususiyatga ega bo'lishidan qat'iy nazar , ularning xususiyatida umumiylik ham mavjuddir. Bu umumiylik ularning adabiyotni o'zlashtirib borishlari davomida unga bo'lgan munosabatlarida , badiiy asarda aks ettirilgan qahramonlarga baho berishlarida ko'rinadi.

Kichik o'smirning o'ziga xos xususiyati shundaki, u o'zini bu yoshda bola deb hisoblaydi. Lekin uning bu bolalik xususiyati xulq-atvorida , hatti-harakatida saqlansa ham, u o'zini katta bo'lgandek his qiladi va kattalarga o'xshab harakat qilishga intiladi. Bu davrda ularda san'atga , ayniqsa , kino va badiiy adabiyotga qiziqish boshlanadi. Ular xayoliy ertak, qahramon va jasur, shafqatli , oq k o'ngil odamlar haqidagi asarlarni o'qishga oshiqadilar. Bu oshiqish , qiziqish xislatlarni ularda turmush haqida o'z bilimlarini oshirishga intilishlarining o'sib borishi

natijasida paydo bo'ladi. Ular bu yoshda kitobni turmushning aksi, unda tasvirlangan voqealarni haqiqat deb biladilar.

V-VII sinf o'quvchilari san'atning mohiyati haqida chuqur tushunchaga ega bo'linmalar ham, go'zallikni his qila boshlaydilar. Kitob o'qish ularga orom bag'ishlaydi. Masalan, dengizni, o'rmonni ko'rmagan o'quvchi kitob o'qish bilan shoir, yozuvchi tasvirlangan dengiz; o'rmon haqida tasavvurga ega bo'ladi va o'zicha ularni qog'ozda aks ettirishga harakat qiladi. Natijada ularda asarda tasvirlangan voqea, qahramon haqida o'zlarida paydo bo'lgan fikrni o'z so'zlari bilan bayon etish istagi qo'zg'aladi.

V-VII sinf o'quvchilari yozuvchining bayoni jo'shq'in nutq deb qabul qiladilar, o'zlarini tabiat, borliq qo'ynida yurgandek his qiladilar. Ular asarni o'qiganlarida, odatda, qahramonlar xususiyatiga e'tibor bermagan holda, o'zlariga kuchli ta'sir ko'rsatgan bir ikki qahramon obrazining xatti-harakatiga ahamiyat beradilar. Ular qahramonlarining kurashi, ruhiy kechinmalari imo-ishoralarida, nutqlarida namoyon bo'lishini yetarli anglamaydilar. Ularni ko'proq asarda tasvirlangan bolalar obrazi qiziqtiradi. Katta yosh kishilar obrazining bolalarga g'amginlik keltirishi, shafqatsizlik qilish kichik o'smirda kuchli ta'sir etadi.

V-VII sinf o'quvchilari hamma narsa aniq va tez bo'lishini xohlaydilar. Shunda ularda jiddiylashish alomati sodir bo'ladi. O'smir o'z so'zining haqqoniyligiga ishongani uchun jiddiylashadi. Shu sababli ham, har bir o'qituvchi va metodistdan o'smirning bu xususiyatiga e'tibor berish, sabr bilan ularda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish talab etiladi. O'smirda asarni estetik qabul qilish, u haqda mulohaza yuritish, o'qigan va o'zlashtirganlarni xotirada saqlash, mantiqiy fikrlash qobiliyatini uzluksiz o'stirib borish, ya'ni ularni abadiy fikrlashga o'rgatib borish kerak.

Adabiy – estetik tahlil har bir asarning janriy xususiyatlari, o'quvchilarning yoshi, bilimi va egallagan malakalariga ko'ra o'ziga xoslik kasb etadi. Masalan, quyi sinflarda topishmoq predmet, voqea – hodisalar o'rtasidagi o'xshashlik taqqoslash orqali o'zlashtirilsa, maqollar mazmuni hayotiy misollar vositasida sharhlangandagina

tushunarli bo'ladi. Chunki kichik yoshdagi bolalar voqealar oqimiga , sarguzashtlarga ishqiboz bo'lsa, katta yoshlilar qahramonlarining ruhiy olami, ichki dunyosiga qiziqadilar.

Asar voqealarini tahlillash orqali tarbiyalash 5-6 sinflarda davom etadi. Chunki bu yoshdagi o'quvchilar oqni oq, qorani qora, yaxshini yaxshi, yomonni yomon tarzida konkret tushunadilar, ammo insonning murakkab ichki dunyosi ular uchun mavhumligicha qolaveradi. Sherning botirligi, tulkinning ayyorligi, quyoning qo'rqqoligi, itning vafodorligi, ularga hayot tajribasidan yaxshi ma'lum. Hayvonlarqa xos bunday sifatlar ertak va masal qahramonlarining hatti-harakatlarida, nutqlarida yorqin aks etgan. Lekin ular o'z holicha tasvirlanmaydi, balki boshqa qahramonlar bilan bog'liq ziddiyatlar vositalarida ifodalanadi. Bu esa , o'z navbatida , kishilar o'rtasidagi ziddiyatlarni aniqlashga yordam beradi.

Shukur Sa'dullaevning «Ayyor chumchuq», «It o'z eqasiqa ganday qilib do'st topdi?», Qudrat Hikmatning «Eshak neqa hangraydi?» ertaklari , Anvar Obidjonning «Juda qiziq voqea» masali shu jihatdan ibratlidir.

Bu xildagi asarlarning qiziqarliligiga sabab ularda ishtirok etuvchi hayvonlar , parrandayu darrandalar, hatto jonsiz predmetlarning gapirishi emas, balki insonlarga xos fazilatlar va illatlarning ularga ko'chirilishidir.

Jumladan, mazkur ertaklarda tilga olingan chaqimchilik, qo'rqqollik, maqtanchoqlik illatlari ham, mardlik, vafodolik fazilatlari ham insonlarga xosdir.

Har qanday illat kishini beburd qilib qo'yadi. Masalan, chaqimchilik tufayli oralar buzilib, nifoq solinsa, qo'rqqolikdan ishonch, e'tiqod so'ndiriladi. Qolaversa , qo'rqqolikdan sotqinlik, xiyonat va nomardlikka bir qadam bo'lib, qo'rqqoq kishi sadoqat va jasoratdan mutlaqo yiroqdir.

O'qituvchi yuqoridagi asarlar tahlilida masalaning shu tomoniga alohida e'tibor berishi zarur. Asar voqealari asosidagi bunday mufassal tahlil o'quvchilarni adabiy qahramonlarning hatti– harakatlaridan xarakterga, voqea- hodisalar tasviridan ma'noga tomon yetaklaydi.

Katta yoshdagi o'smirlarda abadiy rivojlanishning o'ziga xosligi Pedagog va psixolog olimlarning fikricha, VIII-IX sinf o'quvchilarida adabiyot haqidagi tushuncha V-VII sinf o'quvchilarining tushunchasiga nisbatan VIII-IX sinflarda o'quvchilar san'at, adabiyotga go'zallik namunasi sifatida munosabatda bo'la boshlaydilar, kitobni badiiy boylik deb biladilar. Shunga ko'ra, ular ko'proq o'zlarini qiziqtirgan kitoblar o'qiydilar. Asar qahramonlarining kechinmalari, murakkab hissiyotlari o'smirning o'z-o'zini, o'z shaxsiyatidagi xususiyatlarni anglab olishga, o'z ideallarini shakllantirishga va ro'yobga chiq'arishga yordam beruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Katta o'smir o'z ichki olami haqida fikr yurita boshlaydi, asardan o'ziga ma'q'ul bo'lgan voqea va obrazlarni axtaradi.

VIII-IX sinflardagi ayrim o'quvchilarda o'z qarashlarini, fikr – mulohazalarini bayon etishga ishtiyoq kuchayadi, asarni tahlil qilish ko'pincha shaxsiy mulohazalarni yoki qiziqarli mavzuni tahlil qilish bilan almashadi. San'at adabiyotga bunday shaxsiy munosabatga bo'lishi barcha o'quvchilarda bir xilda bo'lmaydi, albatta, ayrimlarda bunday munosabat sezilarli, ayrimlarda kuchsiz, boshqalarda sezilmaydigan darajada bo'ladi.

Shunga ko'ra VIII-XI sinflarda, o'quvchilardagi bu xususiyat e'tiborga olingan holda, ularning asarga beradigan shaxsiy baholari, bildiradigan mustaqil fikrlarning xolis bo'lishiga ahamiyat beriladi. Shu yo] bilan ularda kitobxonlik q'obiliyati nazariy–adabiy tushunchalar yordamida rivoj toptiriladi.

VIII-IX sinflarda vaziyat pedagogik jihatdan bir xil bo'lsa ham, o'quvchilar o'z xarakteriga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Bu sinflarda har bir o'quvchi shaxsiyatidagi o'ziga xoslik o'qigan asarlari haqida bildiradigan mulohazalarida, bilim darajalarida, narsa va voqealarga qiziqish va munosabatlarida namoyon bo'ladi. Shu tufayli, o'quvchilar bilan shaxsiy munosabatda bo'linadi, shaxsiy kechinmalari hisobga olingan holda, ayrim o'quvchining asar haqida xolis fikr

bildirishiga yordam beriladi; obrazli fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan o'quvchida adabiyotga mustaqil yondashish qobiliyati o'stiriladi. Ammo, har vaqt barcha o'quvchilarning madaniy nutqini rivoj toptirishga ahamiyat beriladi.

Yuqori sinf o'quvchilari ko'proq qahramonlarning xarakter mantiqi, o'zaro va davr bilan bog'liq ziddiyatlari, kechmish-kechirmishlari o'rtasidagi sababiy bog'lanishga qiziqadilar. Qahramonlar ma'naviyatiga bo'lgan qiziqishlari tufayli o'quvchilar hayotning nurli va qorong'i jihatlari xususida muayyan tushunchaga ega bo'la boradilar. Ularda go'zallik va nafosatga muh abbat, yovuzlikka nafrat tuyg'ysi shu tariqa shakllanadi.

Abdulla Qodiriyning «Mehrobdan chayon», Abdulla Qahhorning «O'g'ri», P.Qodirovning «Humoyun va Akbar», Sofoklning «Shoh Edip» (7-sinf), Oybekning «Navoiy», M.Shayxzodaning «Mirzo Ulug'bek», Sharof Boshbekovning «Temir xotin», Chingiz Aytmatovning «Asrga tatigulik kun» (8-sinf), Yusuf Xos Xojibning «Qutadg'u bilig», Xorazmiyning «Muhabbatnoma» (9-sinf), A.Navoiyning «Farhod va Shirin», A.Qodiriyning «O'tgan kunlar», M.Behbudiyning «Padarkush», Hamzaning «Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari», Cho'lponning «Kecha va kunduz», O.Yoqubovning «Ulug'bek xazinasi» asarlari tahlili adabiy ta'lim oldidagi bunday tarbiyaviy maqsadni amalqa oshirishda o'qituvchi uchun katta qulaylik tug'diradi.

Badiiy matn ustida ishlash orqali o'quvchilarda adabiy–estetik tahlil malakasini shakllantirishda ularni nazariy bilimlar bilan qurollantirish ta'lim samaradorligini oshiradi. Chunki matn zaminidagi nafosat, yozuvchi ilgari surgan fikr asarning janriy xususiyatlari asosida o'rganilgandagina his qilinishi va o'zlashtirilishi mumkin. Masalan, she'riy asarlar tahlili lirikaning adabiy turi sifatida o'ziga xos xususiyatlari va vazifasidan kelib chiqib ish ko'rishni taqazo qiladi. Undagi har bir so'z, hatto tovush qaynoq hissiyot ma'noni

quyuqlashtirishga qaratiladi, ta'bir joiz bo'lsa, shoir fikrini hikmat darajasiga ko'tarish vazifasiga bo'ysundiradi. Matin asarning badiiy xususiyatlarini o'rganishdagina emas, tahlilning ifodali, adabiy sharhli yoki ijodiy o'qish, keng qamrovli, qiyosiy, muammoli, tadqiqot, noan'anaviy usullaridan foydalanganda ham asosiy manba bo'lib hisoblanadi. Jumladan, yuqori sinflarda asar syujeti, kompozitsiyasi, bosh qahramonlar timsolini o'rganish bo'yicha o'tkaziladigan turli tipdagi tahlillar matn ustida ishlash asosida olib borilsa, o'quvchilarning ijodiy faolliqi oshadi, mustaqil fikrlash doirasi kengayadi.

A.Qodiriyning «O'tgan kunlar» romani bosh qahramoni timsolini badiiy matnga tayangan holda quyidagi reja asosida o'rgatish orqali bunga to'la ishonch hosil qilish mumkin:

1. *Qahramon portreti.* Matindan Otabek portreti tasvirlangan o'rinlarni toping. U sizda qanday taassurot qoldiradi? Otabekning tashqi ko'rinishida fe'l-atvorining qaysi jihatlari aks etgan?

2. *Qahramon nutqi.* Otabek nutqi boshqa qahramonlar nutqidan qaysi jihatlari bilan ajralib turadi? Bosh qahramon nutqining o'ziqa xos xususiyatlari nimalardan iborat?

3. *Boshqa qahramonlarning Otabekka munosabatlari.* Matindan Otabekka munosabat bildirgan o'rinlarni toping. Asar qahramonlari Otabek haqida qanday fikrlar bildirishadi? Kimlarning fikrlari Otabekka mos keladi? u boshqalar bilan munosabatda o'zini qanday tutadi?

4. *Qahramonning hatti-harakati* Otabek timsoli tasvirida fe'l-atvoriga to'g'ri kelmaydigan jihatlar bormi? U o'z e'tiqodiga qanday amal qiladi?

5. *Yozuvchining qahramonga munosabati.* Muallif

Otabek timsoli orqali qanday q'oyani ilgari suradi? Adib bilan Otabek o'rtasida qanday o'xshashlik bor?

Adabiy ta'lim oldidagi yosh avlodni ma'naviy–axloqiy barkamol kishilar qilib tarbiyalashdek murakkab va mas'uliyatli vazifaning yuksak darajada hal etilishi ko'p jihatdan o'quvchilarda ana shunday adabiy – estetik tahlil malakasini shakllantirishga bog'liq . Bunda badiiy asar, adabiy –nazariy tushunchalar, o'quvchilarning yosh xususiyatlari, bilimi, shaxsiy faoliyati o'qituvchi mahorati asosiy omildir.

O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish badiiy matn ustida ishlashning turli shakil va metodlaridan foydalanishni shart qilib qo'yadi. Masalan, ilk tahliliy ko'nikmalar boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida matn mazmuni yuzasidan savol-javob asosida, shuningdek , to'liq, qisqartirib, ijodiy va shaxsni o'zgartirib hikoyalash vositasida hosil qilinadi. Natijada , o'quvchilar matn zaminidagi yetakchi ma'noni aniqlash , nafosatni his etish malakasini egallaydilar. O'rta va yuqori sinflarda esa matn ustida ishlashda insho, referat, bayon taqriz, ma'ruza matnini tayyorlash kabi ish turlari keng qo'llaniladi. Muayyan mavzu yuzasidan o'tkaziladigan bunday mustaqil ishlar o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi, nutqini boyitadi, shaxsiyatini tarbiyalashga yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarda tahlil markaziga bolalar uchun maxsus yaratilgan she'r, topishmoq, hikoya va masallar o'rgatilsa, o'rta va yuqori sinflarda adabiy merosimiz xazinasida katta o'rin tutadigan butun boshli doston, drama va romanlar qo'yiladi. Bu esa adabiy tahlil malakasini bosqichma-bosqich izchil shakllantirishni taqazo etadi.

Tahlilda matnning o'quvchiga tushunarligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tushunarlik deganda yozuvchi yaratgan badiiy olamning betakror o'ziga xosligi, obrazli tasvirning o'quvchi hayotiy tajribasi, bilimi darajasiga muvofiqligi nazarda tutiladi. Chunki Oybekning tarixiy «Navoiy» romanini 5- sinf o'quvchisi «hazm» qilolmagani kabi , « Yer tagida oltin qoziq » topishmoqining javobini topshirish

yoki bog'cha opalar to'g'risidagi she'rni yodlatish ham akademik litsey o'quvchisiga hech qanday zavq bermaydi

Quyida sinflarda bir ruboiy yoki bir tuyuq o'rniga boshqa ruboiy yoki tuyuq o'rgatilsa, katta yo'qotish bo'lmaydi. Ammo yuqori sinflarda Alisher Navoiyning «Xamsa», Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar», «Mehrobdan chayon», Cho'lponning «Kecha va kunduz», Oybekning «Navoiy» kabi adabiyotimizning oltin fondini tashkil etuvchi salmoqdor asarlari o'tilmasa, adabiy ta'limda mukammallikka erishib bo'lmaydi, sharqona tarbiya kemptik bo'lib qoladi.

Badiiy matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning adabiy-estetik tahlil malakasini shakllantirish shunchaki bilim berish vositasi emas, balki adabiy ta'lim oldidagi ta'lim va tarbiya uyg'unligiga qaratilgan eng dolzarb masaladir.

Shunga erishish kerakki, adabiy-estetik tahlil o'quvchining bilimdonligini boyitsin, hissiyotiga cheksiz ta'sir ko'rsatsin, aqlini charxlab, dunyoqarashini kengaytirsin, nutqini o'stirsin. Buning uchun o'qituvchi adabiy-estetik tahlil bilan bog'liq vazifa va topshiriqlarning o'quvchilar tomonidan aniq va to'la tushunishiga erishishi, bilimlarning ular yoshiga mos bo'lishini aniq va to'la bo'lishiga erishishi, bilimlarning ular yoshiga mos bo'lishini hamisha diqqat markazida tutishi lozim.

II:2.Doston janri va ijro etish tartibi

O'zbek xalqi og'zaki ijodi juda uzoq tarixga ega.Og'zaki ijodning qadimdan shakllangan janri dostondir u eng murrakkab,yirik va keng tarqalgan shakllardan hisoblanadi."Doston"so'zi "Qissa", "Hikoya", "Ta'rif", "Maqtov", "Shonshuxrat", "Sarguzasht" ma'nolarida ishlatiladi .U adabiy atama sifatida yirik hajmli ,liro-epik asarlarni anglatadi.Dastlab xalq og'zaki ijodida shakllangan bu janr kiyinchalik yozma adabiyotda ham salmoqli o'rin tutgan .

Biroq yozma va og'zaki adabiyotdagi dostonlar hayotni tasvirlash vositalari va usullari jihatidan bir-birlaridan jiddiy farq qildi .Xalq og'zaki ijodida doston o'tmish zamonlarr to'g'risida qahramonlik idealizatsiyasi ko'lamidagi hikoyalar rivoyatlardir .V.M.Jirmunskiyning yanada aniqroq ifodasiga ko'ra , "Epos –bu xalqning qahramonlik idealazatsiyasi ko'lamidagi jonli o'tmishdir “.Uning ilmiy –tarixiy qimmatini ,ayni paytda juda katta ijtimoiy ,ma'daniy tarbiyaviy ahamiyati ham shundadir".M.Saidovning takidlashicha ,doston murakkab san'at asari bo'lib ,uning doston bo'lishi uchun adabiy matn ,musiqa bo'lishi ,kuylovchi hofizlik san'atini puxta egallagan va soz cherta bilishi zarur

Bu ta'riflarda qarama –qarshilik yo'q va biri ikkinchisini to'ldiradi .Birida dostonning epik voqelikka munosabati nazarda tutilsa ikkinchisida folklarning spesifikasi ,dostonlarning sinkretik xarakteriga e'tibor beriladi .V.M.Jirmunskiy v a H.T.Zarifovlar ta'rifida xalq dostonlarining bosh xususiyatlari ,M.Saidov nazarda tutgan adabiy matnning asosiy belgisi ,ya'ni dostonlarning mazmunan qahramonlik xarakterga ega bo'lishi va ular afsonaviy bahodirlar ,ulug' shaxslar haqida epik edializatsiya doirasida to'qilgan rivoyaviy asarlar ekanligi birinchi o'ringa qo'yilgan .Bu tarifda dostonning o'tmish bilan xalq tarixi bilan mahkam bog'liqligi ham o'ziga xos ravishdahisobga olingan .Chindan ham dostonlarda tarixni xalqona tushunish ,uni jonlatirish mavjud .Ularda xalqimiz boshidan kechirgan ijtimoiy –siyosiy voqealarning etnik birlik va mustaqillik uchun olib borilgan kurashlarning tarixiy mohiyati badiiy bayon etilgan .Shunday qilib ,dostonlar haqiqiy va ideal tarix birlashtirib chatishib ketgan olamshumul voqealarni tasvirlagan ,xalqimizning

axloqiy ,falsafiy ,diniy qarashlarni ,hayoti ,urf –odatlari va maishatni qomusiy bir tarzda ifodalagan o'tmish yodnomalaridir.Dostonlarda tarixiy voqelik xalq fantaziyasi asosida umumlashgan obrazlarda o'z ifodasini topadi .Binobarin ,ularda epik umumlashtirish xalqning ijtimoiy adolat haqidagi ideallari va orzu umidlari bilan yo'g'rilgan .Demak dostonga epiklik monumentalik xos bo'lib ,kompozitsion va sujit qurilishi jihatidan murakkab voqea hodisalarni qamrab oladi .Bunday voqea va hodisalar mazmunan qahramonlik karakteriga ega bo'lib ular xalq edealidagi bahorir atrofiga birlashtiriladi .Favqullotda kuch –qudratga bunday yakka shaxslarda butun bir xalqning orzu-umidlari imkoniyat va intilishlari mujassamlashgan .Xalq dostonlarining janr xususiyatlari uning o'ziga xos uslubi va badiiy shaklini belgilaydi ,ya'ni kuy va ijro bilan mahkam bog'liq bo'lgan yirik hajmli va keng ko'lamli dostonlarning poitik bayoniga ko'tarinkilik ,tananavorlik ,an'anaviylik she'riy va prozaik qismlarning davomiy almashinib kelishi xosdir .

O'zbek xalq dostonlarida juda uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tdi.Uning eng qadimgi namunalari saqlanib qolmagan O'tgan davrda yozib olingan dostonlarga bu janrning ko'p davrlar osha xalq baxshilari hofizasida og'zaki ravishda muayyan o'zgarishlar bilan bizgacha yetib kelganligidan dalolat beradi.Shuning uchun ham ularni baxshilar faoliyati dan ajratib o'rganish mumkin emas.

Dostonlar tasnifi .O'zbek xalq dostonlari nihoyatda ko'p tarkibli bo'lib ,uzoq asrlar davomida yaratildi va turli ijtimoiy –iqtisodiy sharoitlarda kuylanib keldi .Bu hol ularni muayyan turlarga bo'lib o'rganishni taqozo etadi .Dostonlar dastlab V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifov , kiyinroq M.S.Saidov ,B.I.Sarimsoqovlar tomonidan tasnif qilindi.Jumladan V.M Jirmunskiy va H.T.Zaripovlar o'zbek xalq dostonlarini qahramonlik ,jangnoma ,tarixiy ,ramantik hamda kitobiy kabi turlarga ajratadilar M S Saidov esa o'zbek og'zaki an'anaviy dostonlarini qhramonlik ,sof muhabbatni kuylovchi ramantik jangnoma va tarixiy kabi turlarga ajraladi .B I Sarimsoqov esa xalq dostonlarining tarixiylik tamoyillariga asoslanib ,ularni qahramonlik ramantik va tarixiy kabi uch turga bo'ladi .Uning tasnifiga ko'ra ,jangnoma va kitobiy dostonlar ramantik dostonlarning bir ko'rinishidan iborat

.Darhaqiqat ,eposning tarixiylik tamoyillari voqelikni aks ettirish tarzi xalq dostonlarini qahramonlik ,ramantik va tarixiy dostonlar kabi uch yirik turga bo'lib o'rganish zarurligini taqozo etmoqda.

Xalq dostonlari maxsus ijrochilar tomonidan kuylangan .Ular hozir ham baxshi, oqim ,shoir nomlari bilan ataladi.Xalq dostonlarining matni nazmiy va nasriy parchalardan iborat bo'lib ,mavzusiga ko'ra xilma xildir.Boshlang'ich sinflarda asosan:

- 1.Qahramonlik dostonlari;
- 2.Jangnoma dostonlar o'rganiladi.

Xalqning qahramonnona kurashlari qahramonlik dostonlarining paydo bo'lishiga sabab bo'lgan."Alpomish " "Yodgor "kabi xalq qahramonlik dostonlaridan fantaziya va romantik tasvirning kuchli bo'lishiga qaramay ,ularning asosini xalq hayoti va kurashi,uning orzu armonlari tashkil etadi.Xalqqa xos insonparvarlik ,qahramonlik vatanparvarlik, mardlik,mehnatsevarlik,do'stlik va sadoqat kabi oliyjanob fazilatlari xalq dostonlaridagi qahramonlar obrazida mujassamlashgan .

Qahramonlik dostonlari .O'zbek xalq dostonchiligi taraqqiyotida ko'pgina qatlamlar bo'lsa –da , ayniqsa ,ikki qatlam davomiy ikki bosqich –qahramonlik va ramantik dostonlar bosqichi alohida ajralib turadi.O'zlarining yaratilishi davri ,mundariyasi ,g'oyaviy mazmuni ijtimoiy voqelikni tasvirlash tamoyillari bilan ham bu dostonlar bir –birlaridan jiddiy farq qiladi .Biroq ular bir necha asrlar davomida baxshilar tomonidan baravar kuylab kelingan ,shuning uchun ham bu xil dostonlar orasida muayyan yaqinliklar mavjud .Demak biriga xos xususiyatning ikkinchisida zohir bo'lishi ,sof qahramonlik dostonlariga xos belgilarning keyingi o'rinda surila borishi ,qahramonlik dostonlaridan ramantik motivlar va epizodlarning o'rin olishi tabiiy edi.

Qahramonlik dostonlari bizgacha sof holida "Alpomish"misolida yetib kelgan .

Ramantik dostonlar .O'zbek xalq baxshilari repertuaridagi dostonlarning eng katta qismi ramantik dostonlardir ."Xalq ramoni ""Ramantik ""terminlar turkologiyada shartli ravishda qbul qilingan bo'lib ,ular og'zaki yaratilgan ,ba'zan kelib chiqishi jihatidan kitobiy manbaga ega bo'lgan va og'zaki ijro etilgan muayyan

dostonlar guruhini bildiradi .O'zbek baxshilari repertuarida jangnomalar nihoyatda ozchilikni tashkil etadi.Urug' qabila yoki xalqning mustaqilligi uchun olib borilgan janglarni tasvirlovchi jangnomalar .

Ramantik dostonlarning qahramonlik –ramantik turiga mansub asarlarda qahramonlik yo'nalishi yetakchilik qiladi ya'ni ularda sevgi mojarolariga nisbatan qahramonlik yo'nalishi yetakchilik qiladi ya'ni ularda sevgig a nisbatan qahramonlik mavzusini ishlash birinchi planda turadi “Go'rug'li ”turkumi dostonlarining ko'pchiligi bunga yorqin misoldir.

Boshlang'ich sinf o'qish darsliklarida doston janriga ham o'rin berilgan .3-sinf “O'qish kitobi”da “Alpomish ”,”Rustamxon ”dostonlaridan parchalar berilgan bo'lsa ,4-sinfda M.Shayxzodaning “Toshkentnoma”dostoni keltirilgan

3-sinfda o'quvchilarga doston haqida beriladigan ma'lumot “Rustamxon ”dostoniga bog'liq holda bayon etiladi .Darsda o'qituvchi doston haqida quyidagi ma'lumotlarni beradi:

Boshlang'ich sinflarda dostonlardan berilgan parchalarda ,asosan,qahramonlarning bolalik davri aks etgan epizodlar keltiriladi.Bunda bolalarni qahramonlikka ,vatanga sadoqatli bo'lishga chorlovchi voqealar tasvirlanadi.3-sinf darsligidan o'rin olgan “Rustamxon”,”Alpomish”dostonlari xalq og'zaki ijodi maxsuli bo'lganligi uchun muallif haqida ma'lumot berilmaydi .Faqat bu dostonlar o'rganiladigan darslarda dostonni qo'shiq qilib aytadigan baxshilar haqida ma'lumot berish mumkin .

Qahramonlik dostonlari tahlilida voqealar rivojiga qahramonlar hayotiga alohida e'tibor qaratiladi.Dostondagi mubolag'a favqulotda yuz beradigan vaziyatlar aniqlanadi,doston qahramonlariga tavsif berish va tarbiyaviy xulosa chiqarishda o'quvchilarning mustaqil mulohaza yuritishlari uchun sharoit yaratiladi.

3-sinfda ”Alpomish” nomli doston o'rganiladi.Bu dostonni quyidagi tartibda o'rganish mumkin .

1.3-sinfda doston haqida olingan bilimlar esga olinadi va to'ldiriladi

2.”Alpomish”dostoni xalq og'zaki ijodi mahsuli bo'lganligi uchun muallif haqida ma'lumot berilmaydi .

3.O'qituvchi dostonni ifodali o'qib beradi .

4.doston yuzasidan dastlabki suhbat o'tkaziladi ,suhbatda o'quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi:"doston haqida yana nimalarni bilib oldingiz ?"va hokoza.

5.Doston qismlarga bo'linib ,o'quvchilarga o'qitiladi

6.Doston mazmuni to'liq qayta hikoya qildiriladi.Bunda bir o'quvchi mazmunini gapirib berish yoki bir necha o'quvchi ketma –ket davom ettirishi mumkin.

7.Doston matni ustida ishlashda dostondagi badiiy vositalarga e'tibor qaratiladi ,asar mazmuni yuzasidan savol topshiriqlar tuzish dostonning bazi epizodlariga rasmlar chizdirish,dostonga reja tuzish kabi ish turlarida foydalaniladi

Yuqoridagilarni hisobga olib dostonni o'rganish darsining qurulishi quyidagicha bo'lishi mumkin .

1Tayyorgarlik ishlari (bunda doston xususiyatlari va qaysi sinfda o'qitilishiga mos ravishda ish turlari tanlanadi)

2 Dostonni o'qituvchini ifodali o'qishi yoki baxshi aytganini eshittirish

3 Dostonni qismlarga bo'lib o'qish

4 Dostonni mazmunini tahlil qilish

5 Dostonda o'quvchilar tushunishi qiyin bo'lgan so'z va so'z birikmalarning ma'nosi ustida ishlash

6 Dostondagi badiiy sanatlar ustida ishlash

7 Dostonni qismlarga bo'lish va reja tuzish

8 Dostonni to'liq va qayta hikoyalash

9 Umumlashtiruvchi suhbat

II:3.”Alpomish” dostoning tarbiyaviy ahamiyati

Xalq dostonlari qadimiyatning buyuk bir ehsoni, o'zlari yaratilgan davr- ning umumiy dunyoqarashi, ayni paytda jonli an'anaviy ijod va ijro sharoitlarida xalq ruhining obyektiv holatini davrlararo ifodalab, mazmun va shakl jihatidan goh kengayib, goh torayib, ajdodlardan avlodlarga og'zaki ravishda yetib kelgan adabiy yodgorliklar hisoblanadi. Zero, ular xalq milliy tarixining afsonalar qobig'iga o'ralgan qahramonlik voqealarining o'ziga xos badiiy ifodasidir.

O'zbek xalq qahramonlik dostonlari ham asrlar davomida yaratildi va ularning eng yaxshi namunalari xalq san'atkorlari — baxshilar tomonidan jonli epik an'analarda og'zaki ravishda bizgacha olib kelindi. Bunday dostonlarning qadimiy ildizlari saklar, massagetlar, sug'diylar, xorazmiylarga mansub urug' va qabilalarning afsona va rivoyatlariga borib taqalsa-da, ularning kattagina qismi o'zbeklarning yagona xalq sifatida shakllanishida asos bo'lgan urug' va qabilalarda patriarxal urug'chilik munosabatlarining yemirilishi va ilk feodal tuzumning yuzaga kela boshlashi davrlarida yaratilgan. Chunki ular xalqimizning o'zligini anglashining buyuk obidalari, uning yagona xalq sifatida shakllanish va birlashish sari tashlagan ulkan qadamining she'riyat sohasidagi tengsiz namunalari sifatida yuzaga keldi. Dostonlar gultoji <Alpomish> xalqimiz yaratgan ana shunday epik she'riyat namunalaridan biri, balki birinchisidir.

«Alpomish» dostonida bir oila taqdiri tasviri misolida, taqdir taqozosi bilan bo'linib ketgan qadimiy bir o'zbek urug'ining qayta birlashishini badiiy aks ettirish orqali millat birligi g'oyalari, uning qahramonona shon-shuhrati, el-yurt farovonligi va oila baxti, vatan ravnaqi uchun kurash baralla kuylangan. Shu ma'noda ushbu doston xalqimizning uyg'oq xotirasidir. Shuning uchun ham bu- gun biz uni mustaqil rivojlanish davrida millat birligi va ma'naviy uyg'onishi, milliy g'urur va o'z-o'zini anglash ramziga aylangan doston sifatida bahola- moqdamiz. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A. Karimov «Alpomish» dostonining 1000 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan 1999- yil 6-noyabrdagi nutqida alohida ta'kidlaganidek: «Alpomish» — o'zbekning o'zligini namoyon etadigan, mard va

tanti xalqimizning yurak-yuragidan qon- qoniga, ota-bobolarimiz avlodlardan avlodlarga o'tkazib kelayotgan qahramonlik qo'shig'idir...

Aslida, xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tunganmas bir doston bo'lsa, «Alpomish» ana shu dostonning shohbaytidir. Bu mumtoz asarda tarix to'fonlaridan, hayot-mamot sinovlaridan omon chiqib, o'zligini yo'qotmagan xalqimizning bag'rikenglik, matonat, olijanoblik kabi ezgu fazilatlari o'z ifodasini topgan»Alpomish dostoni ijodiy tafakkurimiz, ma'naviy boyligimizning yorqin namunasi bo'lib tarixiy ildizlarimizning qanchalik chuqur ekani, xalqimiz qanday tabiiy-ijtimoiy muhitda shakillanib rivojanganini, ajdodlarimizning o'lis davirlarda ham jamoa bo'lib, bir-biriga yilkadosh bo'lib, o'z boshiga tushgan qiyinchiliklarni yingib yashaganini yorqin bo'yoqlarda tasverlab beradi.²

Shu o'rinda asardagi kichik bir misolga murojaat qilaylik. Ota-bobolarimiz qadimiy tasavvuriga ko'ra o'q-yoy-hokimiyat nishoni hisoblangan Alpomish yitti yoshida o'n to'rt botmon birichdan-bronzadan yasalgan yoydan o'q otib, alp degan unvonga ega bo'ladi. Alp degani-hokimiyat egasi ekanini ijobatga olsak, bu doston ko'p asirlik milliy davlatchiligimizning badiiy ifodasi ekaniga ham ishonch hosil qilamiz. Bir so'z bilan aytganda, xalqimizning yingilmas bahodiri-Alpomish timsolida biz vatanimizni yomon ko'zlardan, balo-qazolardan asrashga qodir, kerak bo'lsa, bu yo'lda jonini ham fido qilishga tayyor bo'lgan azamat o'g'lonlarimiz-bugungi alpomishlarning ma'naviy qiyofasini ko'ramiz. «Alpomish» dostoni xalqimiz orasida juda keng tarqalgan va asrlar davomida baxshilar tomonidan kuylab kelingan. Shu bilan birga u turkiy xalqlarning mushtarak dostoni hamdir. Uning namunalari o'zbek, qoraqalpoq, qozoq, oltoy xalqlari epik an'alarida doston holida, tatar, boshqa xalqlari orasida esa, ertak va rivoyatlar tarzida, yana aniqrog'i, oraliq shaklda saqlanib qolgan hamda bu xalqlarning til xususiyatlariga ko'ra «Alpomish», «Alpamis», «Alpamis botir», «Alip-Manash», «Alpamsha», «Alpamisha va Barsin hiluv» kabi nomlar bilan yuritiladi. Shuningdek, Panjikent atroflari, Qashqadaryo viloyatining Vargonza, Jeynov qishloqlaridan o'zbek

1. ² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. «Ma'naviyat» Toshkent. 2008-yil. 32,33,34-bet

dostonchilik an'analari ta'sirida yuzaga kelgan hamda jiddiy transformatsiyaga uchragan tojikcha va arabcha variantlari ham yozib olingan. Yozma manbalar orqali bizgacha yetib kelgan o'rta asr o'g'uz eposi «Dada Qo'rqud kitobi»ning uchinchi bo'yi (dostoni) — «Bamsi Bayrak» o'zining syujet voqealari jihatidan «Alpomish»ga ancha yaqin turadi.

Bir sujetdagi bir dostonning bir necha xalqlarda mavjudligi ularning milliy o'ziga xosligini inkor etmaydi. Chunki bu dostonlarning qadimiy tarixiy-hayotiy asoslari bir bo'lsa-da, ularning har bir keyingi taraqqiyotida o'zlari mansub xalqning epik an'analari doirasida rivojlandi, og'zaki ijod va ijro sharoitlarida yashashda davom etdi va faqat keyingi davrlardagina shunday sharoitlarda folklorshunoslar tomonidan yozib olindi. Shuning uchun ham uning versiya va variantlariga ega bo'lgan har bir xalqning unga o'zining milliy eposi sifatida munosabatda bo'lishi tabiiy bir holdir.

«Alpomish» dostoni milliy versiya va variantlarining fanda aniqlanishi va yozib olinishi bir vaqtda, bir xil davrda ro'y bergan emas. Masalan, dostonning qozoq va qoraqalpoq variantlari XIX asming oxirlari va XX asrning boshlarida yozib olinib, nashr etila boshlangan bo'lsa, o'zbek variantlari ancha kech, 20-yillarning boshlarida aniqlangan. Oltoy versiyasi esa, ikki variantda 1939 va 1957-yillarda yozib olingan. Yoki tojik versiyasi 1956-1957- yillarda to'rt variantda yozib olinib, 1959-yilda nashr etilgan bo'lsa, arabcha ertakni I. N. Vinnikov Qashqadaryo viloyati Jeynov qishlog'ida 1938-yilda yozib olgan. Eng ko'p yozib olingani qoraqalpoq va o'zbek versiyalaridir. Qoraqalpoq versiyasi sakkiz variantda, o'zbek versiyasi esa, o'ttizdan ortiq xalq dostonchisidan to'la holda, parcha, bayoni tarzda o'ttiz besh marta yozib olingan. Bu hisob dostonning O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti folklor arxivida saqlanayotgan nusxalarigagina tegishlidir. Bundan tashqari dostonning boshqa jamg'armalarda (masalan, San'atshunoslik institutida), shaxsiy arxivlarda saqlanayotgan notamom, parcha yoki bayoni tarzidagi variantlari ham mavjud.

«Alpomish» dostoni o'zbek variantlarining to'planishi, nashr etilishi va o'rganilishi tarixi g'oyatda qiziqarlidir. Bu o'zbek folklorshunosligining fan sifatida shakllanishi

va rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir. 1922-yilning yozida birinchi o'zbek professori G'ozi Olim Yunusov Turkiston Maorif komissariati Davlat ilmiy kengashining O'zbek bilim hayati yo'llanmasi bilan Sirdaryo va Samarqand viloyatlarida ilmiy safarda bo'ldi. Safar davomida u o'zbek shevalari va etnografiyasiga oid materiallar to'plash bilan bir qatorda Hamroqul baxshi va Fozil Yo'ldosh o'g'lidan «Alpomish» dostonining bir qismini yozib oldi. Uning ma'lumotiga qaraganda, qo'lyozma 50 sahifadan iborat bo'lgan. G'ozi Olim Yunusov «Bilim o'chog'i» jurnalining 1923-yil 2-3-sonida kichik bir so'z boshi bilan o'zi yozib olgan nusxadan parchalar e'lon qildi.

Dostonning boshlanishidan Boysarining Kashalga ko'chishigacha bo'lgan qism Fozil Yo'ldosh o'g'li aytgan dostonidan («Bilim o'chog'i» jurnali, 39-44-betlar), Boysarining Kashalga kelganidan Alpomishning Barchinni izlab yo'lga chiqishi va mozorotda tunashigacha bo'lgan voqealar Hamroqul baxshi kuylagan «Alpomish»dan (45-59-betlar) olingan. G'ozi Olim yozib olgan variantning qolgan qismi ma'lum emas. U to'plagan boshqa materiallar qatori «Alpomish» qo'lyozmasi ham yo'qolgan. «Bilim o'chog'i» jurnalida e'lon qilingan parcha dostonning birinchi ommaviy nashri hisoblanadi. 20-yillarda «Alpomish» dostoni haqidagi mulohazalar asosan G'ozi Olim nashri doirasida bo'ldi. Masalan, professor Fitratning 1928-yilda nashr etilgan «o'zbek adabiyoti namunalari» kitobida mazkur nashrdan foydalanilgan. Unda Fozil Yo'ldosh o'g'lidan yozib olingan qism qayta nashr etilgan (33-40-betlar).

«Alpomish» dostoni 1926-yildan boshlab yetakchi xalq baxshilaridan to'la ravishda yozib olinib boshlandi. Dastlab shoir Abdulla Alaviy Toshkent viloyati Evalak qishloqlik Berdi baxshidan dostonning bir variantini yozib oldi. Bu variantdan bir parcha Fitratning yuqorida tilga olingan xrestomatiyasida (40- 43-betlar), uning kattagina qismi Miyonbuzruk Solihov tomonidan 1935-yilda «Oktabrgacha bo'lgan o'zbek og'zaki adabiyoti (folklor)» to'plamida nashr etildi (86-145-betlar). Bu nusxani to'la ravishda ushbu satrlar muallifi so'z boshi bilan nashrga tayyorladi va u 1969 hamda 1999-yillarda ikki marta bosilib chiqdi. 1926-yilda mashhur folklor

to'plovchi Muhammadisa Ernazar o'g'li atoqli xalq shoiri Po'lkan variantini yozib oldi.

Hodi Zarifning ma'lumotiga qaraganda, bu variantning yozib olinish jarayoniga atoqli xalq shoiri Ergash Jumanbulbul o'g'li ishtirok etgan va uning ayrim o'rinlari uning og'zidan yozib olingan. Mazkur satrlar muallifi folklorshunos Z. Husainova bilan hamkorlikda ushbu nusxani to'la ravishda nashrga tayyorladi va u 1999-yilda nashr etildi. Shuningdek, A. K. Borovkov 1928-yilda O'ratepa tumani Qayirma qishlog'ida yashovchi Mavlon Pirmat o'g'lidan dostonning mazmunini yozib oldi va uni 1956-yilda «o'zbekiston Fanlar akademiyasi axborotlari»ning 11-sonida o'zbek va rus tillarida nashr etdi (77-88-betlar)

Dostonning badiiy jihatdan eng mukammal varianti Fozil Yo'ldosh o'g'lidan 1928-yilda Mahmud Zarifov tomonidan yozib olingan nusxasi hisoblanadi. Uning birinchi qismi qisqartirilgan holda 1939-yilda Hodi Zarifning «o'zbek folklori» xrestomatiyasida (80-128-betlar) nashr etildi. Xuddi shu paytdan boshlab Fozil Yo'ldosh o'g'li variantidan parchalar maktab xrestomatiyalari, o'quv qo'llanmalari, turli to'plamlarda muntazam ravishda nashr etilib kelinmoqda. Shuningdek, shu yili jiddiy qisqartirilgan holdagi Hamid Olimjon nashri ham yuzaga keldi. Shoir Hamid Olimjon dostonni nashrga tayyorlashda uni qariyb yarmiga qisqartirgan. Ammo bu qisqartirish shu darajada bilim va san'atkorlik bilan amalga oshirilganki, bu holat dostonning yaxlitligiga putur yetkazmagan. Shoir doston matniga biron-bir so'z qo'shmagan, doston tilini tahrir qilmagan, balki undagi mavjud imkoniyatlardan mirishkorlik bilan foydalangan, ya'ni uzundan uzoq monolog va dialoglardan iborat she'riy matndagi badiiy zaif misralarni qisqartirish bilan doston syujeti voqealarini to'la saqlagan. Nashrga tayyorlovchi olti ming misraga yaqin matnni qisqartirgan bo'lsa-da, dostonni o'qish davomida bu narsa deyarli sezilmaydi. Shuningdek, shoir nashrga kattagina so'zboshi yozib, uning g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini tahlil etdi. Dostonning yaratilganligiga 1000 yil to'lganligi haqidagi dastlabki mulohazalar ham Hamid Olimjonga tegishlidir. Shuning uchun ham bu nashr madaniyatimiz tarixida

katta voqea bo'ldi va xalq dostonlarini nashr etishdagi ijobiy tajriba sifatida o'z ahamiyatini hanuz yo'qotgan emas.

1957-1958-yillarda marhum Hamid Olimjon nomidan dostonning ikkinchi va uchinchi nashrlari chop etildi. Ammo bu nashrlarda «asarning umumiy sujeti va asosiy g'oyaviy yo'nalishi bilan organik bog'liq bo'lmagan, ekspluatator sinf mafkurasining ta'siri ostida buzilgan yoki sun'iy ravishda kiritilgan ba'zi so'zlar, iboralar, asarning xalqchilik asosiga zid bo'lgan ayrim tasodifiy hodisalardan dostonni tozalash» bahonasida Hamid Olimjon erishgan yutuqlarga barham berildi, matnga toqat qilib bo'lmas darajada qoim urildi, doston tili o'rinsiz ravishda tahrir qilindi va bu bilan g'ayri ilmiy yo'l tutildi. Chunonchi, dostonda «Ko'zi quralayday bo'lib» degan juda chiroyli misra bor. Bu misra o'rinsiz ravishda «Quralay ko'zi cho'g'day bo'lib» tarzida tahlid qilingan. Bu bilan doston tilidagi tabiiylikka zarar yetkazilgan, qofiya tizimi buzilgan (oyday-toyday-boyday-quralayday, ammo cho'g'day emas). Yoki «Bir kalmani jariy qaytar, Qorajon» misrasi «Bir so'z aytib ko'nglin ko'tar, Qorajon» tarzida buzib berilgan. O'rinsiz qisqartirishlardan tashqari bunday o'zgartirish va tahrir qilish hollari uch yuzdan oshib ketadi. Shu raqamning o'ziyoq, doston matniga qanchalik qo'l urilganligini ko'rsatib turibdi. Bu narsa o'z vaqtida ilmiy jamoatchilikning jiddiy e'tirozlariga sabab bolgan edi. Shuning uchun ham dostonning eng mukammal nusxasi bo'lgan. Fozil Yo'ldosh o'g'li variantini to'la ravishda kitobxonlarga yetkazish dolzarb vazifa bo'lib kelmoqda edi. Bu ishga kamina o'zbek folklorshunosligining asoschisi, atoqli olim va murabbiy Hodi Zarif (1905-1972) bilan hamkorlikda 1964-yilda kirishgan edi. Ammo uning birinchi qismini tugallash bilan ish to'xtab qoldi. Bunga 1968-yildan «Bulbul taronalari» (Toshkent, 1971-1973) besh jildligini nashrga tayyorlashga kirishish va ustozning vafoti sabab bo'ldi. Keyinchalik kamina ishni nihoyasiga yetkazdi va u ayrim qisqartishlar bilan 1979-yilda «o'zbek xalq ijodi» ko'p jildligi silsilasida nashr etildi. 1985-yilda qayta bosilib chiqdi. 1987-yilda yana biroz qisqartirilgan holda «Maktab kutub xonasi» seriyasida chop etildi. Uning nisbatan to'la nashri 1992-1993-yillarda ikki jildda amalga oshirildi.

Hamid Olimjon nashri asosida shoir L.M. Penkovskiy dostonni rus tiliga tarjima qildi. Bu tarjima 1949-yilda Toshkent va Moskvada M.Shayxzoda va V.M. Jirmunskiylar so'zboshilari bilan alohida-alohida kitoblar tarzida bosilib chiqdi. Keyinchalik L.M. Penkovskiy doston tarjimasini qaytadan ko'rib chiqib, biroz to'ldirdi. Bu tarjima Toshkent (1958, 1974, 1998), Moskva (1958, 2009), Leningrad (1982) shaharlarida qayta-qayta nashr etildi. Jp Doston variantlarini yozib olish ishlari 30-40-yillarda ham davom ettirildi. Jumladan, 1937-yilda Yusuf Sultonov Qo'qonning Beshkapa qishlog'ida yashovchi Bo'ri baxshidan, 1938-yilda Shamsi Murodov Qiziltepa tumani Kenagas qishlog'ida yashovchi Saidmurod Panoh o'g'lidan, 1944-yilda Mansur Afzalov Nurota tumanining Qo'tir qishlog'ida yashovchi Bekmurod Jo'raboy o'g'lidan doston variantlarini yozib oldilar. 1940-yilda Munisxon Toshpo'latova qiziltepalik Saidmurod Panoh o'g'li variantidan parchalar, 1945-yilda Qosim Muhammedov Sherobod tumanining Chig'atoy qishlog'ida yashovchi Mardonaqul Avliyoqul o'g'li variantining ikkinchi qismini yozib oldilar. 1951-yilda Oxunjon Sobirov atoqli xalq dostonchisi Islom shoir variantining mazmunini yozib oldi. Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlash kerakki, qiziltepalik Saidmurod Panoh o'g'li variantini yozib olgan Shamsi Murodov o'sha paytda o'n uch yoshda bo'lgan va oltinchi sinfda o'qigan. Buni o'ziga xos jasorat deb baholash mumkin. Afsuski, bu talantli yigitcha Ikkinchi jahon urushi jangohlarida mardlarcha halok bo'ldi. Shamsi Murodov qo'lyozmasini ushbu satrlar muallifi so'z boshi bilan nashrga tayyorladi va u 1972-yilda «Odilxon» kitobi tarkibida, 2000-yilda «Yodgor» dostoni bilan birgalikda chop etildi. Shuningdek, Bekmurod Jo'raboy o'g'li varianti ham 1999-yilda bosilib chiqdi.

«Alpomish» dostoni nafaqat og'zaki ravishda, balki Hamid Olimjon nashri orqali ham xalqimiz orasiga keng tarqalganligiga, maktablar va oliy o'quv yurtlari o'quv dasturlari hamda darsliklaridan munosib o'rin olganligiga, uning motivlari asosida dramalar va teatr spektakllari yaratilganligiga qaramay, A. Abdunabiyev va A. Stepanov kabi «tanqidchilar» ham topildiki, ular 1952-yilda «Триба,aa БoCTOKa» gazetasi va «3Be3,aa БoCTOKa» jurnalida e'lon qilgan maqolalarida

dostonni xalqqa qarshi, reaksiyon asar sifatida baholadilar. Shu yilning mart oyining oxirida O'zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti hamda Yozuvchilar uyushmasining birgalikda o'tkazgan kengashi ham dostonning g'oyaviy mazmunini buzib, uni «Qonli urushlarni ko'klarga ko'tarib maqtovchi, xon va beklarning talonchiligi va ularning kambag'al xalqqa o'tkazgan zulmini dabdaba bilan kuylovchi, millatchilikni targ'ib qiluvchi, xalqqa qarshi asar», — deb baholadi. Shu tariqa xalqimizning bu sevimli dostoni qatlam qilindi, uni o'qish, o'qitish man etildi.

Ammo sofdil, haqiqiy folklorshunoslar bunday g'ayri ilmiy baho bilan erisha olmadilar. Hodi Zarif, Mansur Afzalovlar 1954-yildayoq epos masalalariga bag'ishlab Moskvada o'tkazilgan kengashda so'zlagan nutqlarida «Alpomish» dostoni badiiy yuksak xalqchil asar ekanligini asoslab, uni o'rganish uchun maxsus ilmiy konferensiya o'tkazish zarurligini ta'kidladilar. Shunday konferensiya 1956-yilning sentabrida Toshkentda o'tkazildi. Konferensiyada

va 1959-yilda «Об эпосе «Алпамыш»» nomi bilan e'lon qilingan uning materiallarida dostonga nisbatan haqiqiy ilmiy baho berildi, uni o'rganish va nashr etishga yo'l ochildi. Natijada V. M. Jirmunskiyning «Сказание об Алпамыше и богатырская сказка», ushbu satrlar muallifining «Alpomish» dostonining o'zbek variantlari» monografiyalari bosilib chiqdi, doston bo'yicha nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilindi, yangi variantlarini yozib olishga kirishildi. 1954-yilda Fatxulla Abdullayev Yangiqo'rg'on tumani G'ovozon qishlog'ida yashovchi Haydar Boycha o'g'lidan, 1955-yilda Zubayda Husainova Kitob tumani Qaynarbuloq qishlog'ida yashovchi Abdulla shoirdan, Zubayda Husainova bilan Muzayyana Alaviya shu tumanning Shotiri qishlog'ida yashovchi Hamro Ergash o'g'lidan, Mansur Afzalov Shahrisabzda turuvchi Zohir Qo'chqor o'g'lidan, 1956-yilda Oxunjon Sobirov Dehqonobod tumani Qorashina qishlog'ida turuvchi Umir shoirdan, 1958-yilda A. Mirzayev Guliston tumani Qo'ybotgan qishlog'ida turuvchi Murod Otaboy o'g'lidan, Mansur Afzalov Jarqo'rg'on tumani Jaloyir qishlog'ida yashovchi Mamadrayim baxshidan, 1960-yilda Malik Murodov G'ijduvon tumani

Zahkash qishlog'ida yashovchi Amin Malik o'g'lidan, 1962-yilda To'ra Mirzayev Malik Murodov bilan birgalikda Xatirchi tumani Yonbosh qishlog'ida yashovchi Egamberdi Ollomurod o'g'lidan, shu yili To'ra Mirzayev Tojikistonning Dang'ara tumani Qo'shqiya qishlog'ida yashovchi Ahmadjon Soibnazar o'g'lidan, M.Afzalov T. Ashurov bilan birgalikda Hazorasp tumani Kurra qishlog'ida yashovchi Matnazar Jabbor o'g'lidan, 1963-yilda To'ra Mirzayev Tojikistonning Kolxozobod tumani Paxtaorol qishlog'ida turuvchi Bo'riboy Ahmedovdan, 1964-yilda Malik Murodov Yangiqo'rg'on tumani Oraariq qishlog'ida yashovchi Razzoq Qozoq o'g'lidan doston variantlarini yozib oldilar. 1968-yilda atoqli shoir-qissaxon Rahmatulla Yusuf o'g'li o'z variantini yozib topshirdi. Shuningdek, talantli dostonchi dehqonobodlik Qodir Rahimovdan folklorshunoslar Abdumo'min Qahhorov va Abduolim Ergashev dostonning ikkinchi qismini «Beva Barchin» nomi bilan yozib oldilar. To'ra Mirzayev 1962-yilda Yangiyer tumani Qo'shqand qishloqlik Iso Yangiboy o'g'lidan va 1963-yilda Tojikistonning Dang'ara tumani Jorubqo'l qishlog'ida yashovchi To'la Haybat o'g'lidan dostonning mazmunini yozib oldi. 1959-yilda Temur Ochilov Zomin tumani Qarapchi qishloqlik m Yorlaqab Beknazar o'g'lidan dostonning bosh qismini yozib olgan edi. Ushbu parchani mazkur satrlar muallifi «O'zbekiston ovozi» gazetasining 1995-yil 30-sentabr sonida e'lon qildi. 1999-2000-yillarda Malik Murodov va Abduolim Ergashevlarning «Alpomishnoma» kitoblarida Qodir Rahim o'g'li, Qora Umir o'g'li, Xushvaqt Mardonaqul o'g'li, Chorshanbi Rahmatulla o'g'li, Qahhor Qodir o'g'li, Abdumurod Qodir o'g'li kabi keyingi avlod baxshilari variantlaridan parchalar nashr etildi. Shu tariqa keyingi 90 yil davomida doston variantlari mamlakatimizning barcha viloyatlari hamda undan tashqaridagi o'zbeklar yashaydigan hududlardan yozib olingan. Bu variantlar syujet voqealari jihatidan bir-biriga o'xshasa-da, ulaming badiiy ifodasi turli-tumandir. Shuning uchun ham olimlar ularning har birini mustaqil badiiy asar sifatida o'rganib kelmoqdalar. Shu kunlarda dostonni keyingi avlod baxshilari ham kuylab kelmoqdalarki, bu narsa uning jonli og'zaki ijro sharoitlarida izchil yashab kelayotganligidan dalolat beradi.

Ushbu nashrga, shuningdek, dostonning 1998-yilda chop etilgan ommaviy hamda 1999-yilda amalga oshirilgan akademik nashrlariga atoqli xalq shoiri Fozil Yo'ldosh o'g'lidan yozib olingan «Alpomish» dostoni qo'lyozmasi asos bo'ldi. Qo'lyozma O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutining folklor arxivida 18-inventar birligida saqlanadi. Qo'lyozma 946 sahifadan iborat. Qog'oz bichimi: 36x23. Doston she'riy qismining o'zi 13715 misrani tashkil etadi. Qo'lyozmaning dastlabki sahifasida 1927-yil 14-iyun sanasi ko'rsatilgan. Boshqa hech qanday izoh yoki qo'shimcha ma'lumotlar qayd etilmagan. Dostonning yozib olinishini tashkil

etgan Hodi Zarifning barcha asarlarida uning qalamga olinish sanasi 1928-yil deb ko'rsatiladi. Taxminimizcha, doston qo'lyozmasining 16-sahifasigacha bo'lgan qismi bizga noma'lum bo'lgan shaxs tomonidan 1927-yilning 14-iyunida yozib olingan. Shundan keyin nima sababdandir uni yozib olish ishi " to'xtab qolgan. 1928-yilda esa, dostonni yozib olish ishi davom ettirilgan. Hodi Zarifning og'zaki ma'lumotlariga ko'ra, dostonni uning rahbarligida Mahmud Zarifov 1928-yilning yoz oylarida ikki oy davomida Fozil shoirning Bulung'ur tumani Loyqa qishlog'idagi uyida yozib olgan.

Dostonni nashrga tayyorlashda qo'lyozmadagi matn to'la ravishda saqlandi. Faqat fonetik jihatdangina (masalan, «Jo'q» o'rnida «yo'q» tarzida) adabiy tilga yaqinlashtirildi. Shunda ham tasvir vaziyatiga alohida e'tibor berildi va asar badiiyligi bilan bog'liq barcha sheva xususiyatlar saqlab qolindi. Matndagi pornografik so'zlar o'rniga ko'p nuqta qo'yildi.

Milliy iftixorimiz bo'lgan «Alpomish» dostonining to'la ravishda xalqimizga yangidan yetkazilishi madaniy taraqqiyotimizdagi ulkan voqeadir. Istiqloq tufayli yuzaga kelgan ko'pdan ko'p imkoniyatlardan birining folklorshunoslikda o'ziga xos ravishda voqe bo'lishidir.

ALPOMISH

(*Parcha*)

Qo'ng'irotda elida aka-uka Boysari bilan Boybo'ri yashar edi. Oллоh taolo Boybo'riga o'g'il farzand ato etgan kuni Boysari xonadonida ham qiz tug'ildi.

Boybo'ri o'g'lini Hakimbek, Boysari boy qizining ismini Barchinoy qo'ydilar.

Kimdan kun, oydan oy o'tib, bolalarning tili chiq-di. Hakimbek bilan Barchinoy to'rt yoshga yetgan-larida madrasaga berdilar.

Boybo'ri aytdi:

— Hakim bolam — Qo'ng'irotda avlodi,
Zurriyodimni endi sizga topshirdim.
O'zbek deydi asli zoti,
Yozgin deydi, Hakim otin.
Saboq bering har tomondan,
O'lsam boshga panoх bo'lsin,
Elga ota-ona bo'lsin.

Ularning savodi chiqib, xat o'qib-yozadigan mulla bo'ldilar. Shunda Boybo'ri: «O'g'limning savodi chiqib mulla bo'ldi, endi shohlik, sipohilik ilmini o'rgata-yin», — deb uni kamon otish, nayza sanchish, kurash tushish amallarini o'rgatuvchi dong'i chiqqan us-tozlar qo'lga topshirdi.

Hakimbekni olti yoshga to'lganda mashhur Qosim merganga shogirdlikka beradilar. Mergan bolaga yoy tortishni o'rgatadi. Qosim Hakimbekka olti oy davomida merganlikdan saboq beradi.

Hakimbekning bobosidan qolgan o'n to'rt yarim botmonlik parli yoyi bor edi. Uni hech kim joyidan qo'zg'ata olmas edi. Bir kuni Hakimbek ana shu yoyni qo'lga ushlab, ko'tarib tortadi, so'ng qo'yib yubo-radi. Yoyning o'qi yashindek bo'lib ketadi. O'q Asqar tog'ining katta cho'qqisini yulib o'tadi. Shundan so'ng

Hakimbekning ovozi olamga yoyiladi. Xalq yig'iladi. Ular ichidan bir donishmand chiqib:

— Dimyoda bir kam to'qson alp¹ o'tdi. Shu alplar-ning boshlig'i Rustami Doston edi, oxiri bu — Alpo-mish alp bo'lsin. Shunda u to'qson alpning qatori-dan joy oladi, — dedi.

Shunday qilib, Hakimbek alp bo'lib, to'qson alpning biri bo'lib qatorga qo'shildi. Kunlarning birida Boybo'ri o'g'li Alpomishdan so'radi:

— Kishi nimadan baxil, nimadan saxiy bo'ladi? Alpomish aytdi: — Vaqt-bevaqt olisdan otini

yetaklab mehmon kelsa, mezbon uning ko'nglini olib jo'natsa, bul odam saxiydir. Bordi-yu, imkoni bo'la turib, mehmonga joy bermasa, bul odam baxildir.

1. Boybo'ri va Boysari xonadonidagi quvonch haqida gapiring.

2. Hakimbek va Barchinoy qachondan madrasaga bora boshladilar?

3. Boybo'ri Hakimbekni qachon va nima maqsadda ustozlar qo'lga topshirdi? Qosim merganga-chi?

«Alpomish» dostoni bizga vatanparvarlik fazilat-laridan saboq beradi. Odil va haqo'y bo'lishga, o'z yurtimizni, oilamiz qo'rg'onini qo'riqlashga, do'st-u yorimizni, or-nomusimizni, ... har qanday tajovuz-dan himoya qilishga o'rgatadi».

II:4. Boshlang'ich sinf o'qish darsligidagi “ Alpomish ” dostonini o'rgatishda interfaol usullardan foydalanish

Darsning mavzusi: Alpomish dostonini o'rganish.

Darsning maqsadlari:

Ta'limiy maqsad: O'quvchilarni o'qish darsiga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, o'qish malakasini shakillantirish.

Tarbiyaviy maqsad: O'quvchilarni Ona Vataga mehribonlik, muhabbat ruxida tarbiyalash, tabiatni qadriga yetishga va asrab-avaylashga o'rgatish.

Rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarga o'tmishdan qolgan dostonlarimizni ruxiyatiga singdirish, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

Darsning turi: noan'anaviy, yangi bilim beruvchi dars.

Darsning metodi: suhbat, tarmoqlash, mustaqil ish, raqobatlashtirish, guruhlar bellashuvi.

Darsning jihozi: ko'rgazma qurollar, tarqatma varaqalar, plakatlar, o'quvchilar chizgan rasmlar.

Darsning taqsimoti

1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni so'rash	5 daqiqa
3	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
4	Yangi mavzu bayoni	20 daqiqa
5	Yangi mavzuni mustahkamlash	7 daqiqa
6	Dars yakuni. Baholash va uyga vazifa berish	5 daqiqa

Darsning borishi: Bolajonlar bugun biz sizlar bilan masuliyatli ish bilan shug'ullanamiz bugungi darsda siz menga yordam berasiz biz sizni bilimlaringizni sinab siz to'plagan baholariznisizlarni men 3guruhga bo'laman va bilimlarizni sinab kuraman . 4 ta shart asosida o'quvchilarga bugungi mavzu ochib beriladi:

1-“Savatda mevalar Akvarumda baliqlar” o'yini (bunda o'quvchilardan o'tgan dars so'raladi va mustahkamlanadi)

- 1.Doston atamasining mohiyati nimadan iborat ?
- 2.Doston janri o'zbek folklorida qanday o'rin tutadi ?
- 3.Dostonlarni yaratilishiga nimalar ta'sir ko'rsatadi?

2-“Mazayka “ (bunda o'quvchilarga Alpomish dostonidagi qahramonlar ishtiroki salbiy va ijobiy qahramonlar aralash beriladi ular uni 2 ustun bilan ajratadilar?)

3-“Pantamimika ” Bunda o’quvchilarga qahramonlar Ultontoz ,Barchinoy ,Alpomish,Toychixon,Tokvaoy,Boysari,Boychibor,Qorajon,Boybo’ri,Qultoy,Ko’kald osh,Yodgor,beriladi ularni harakatlar orqali topadilar.

4-‘Mushuk qopi ” bunda o’quvchilarga “Alpomish “dostoni o’qib beriladi o’quvchilar mustaqil o’zlari o’z fikrlarini aytadilar va Qopda yopiq test holatida savollar bo’ladi ular javob yozadilar ?

Dars yakuni : O’quv va taqdirlanadi va ishtirokchilar yig’gchilar mana ko’rib bilib oldikki vatanga ota-onaga bo’lgan sadoqat bizni hech qachon yomonlik yo’liga boshlamaydi mard ,jasurlik ,sog’lomlik bu eng katta boylikdir.

Kartochkalar hisoblanib u kartochkalarini mehribonlik uyiga topshirish aytiladi o’qituvchi tomonidan qiziqarli taqdirlanadi.

II:5. Tadqiqot usullari va natijalarini tahlili.

O'quvchilarning mavzularni qanchalik o'zlashtirayotganligi, olgan bilimlari orqali mashqlarni to'g'ri bajarayotganligi tadqiqot va natijalarning tahlili asosida aniqlanadi. Bu ishlarini olib borishda asosiy e'tibor o'rganilayotgan muammoning zarurligi ta'kidlab o'tiladi. Tadqiqot ishlarini tashkil etishda:

1. O'qish fanini boshqa fanlar bilan o'zaro bog'lash;
2. O'quvchiga yangi ilg'or texnologiyaga asoslangan dars tuzilishi haqida nazariy tushunchalarni berish;
3. Mavzuni o'zlashtirish maqsadida uni tahlil qilish;
4. O'quvchining dars jarayonida mustaqil ishlash ko'nikmasini shakllantirish uchun zarur shart-sharoit yaratish;
5. Ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib darslarni samaradorligini oshirish;

Nazariy hamda amaliy mashg'ulotlarini tashkil etishda, birinchi navbatda o'quvchilar bilimini quyidagicha tartibda baholash me'yorlariga e'tibor qaratildi.

O'quvchilarning bilimlarini baholashni quyidagi bosqichlarda orqali ko'rib chiqildi:

1-bosqich. Ishni kamchiliklarsiz to'liq bajargan o'quvchilarga «5» baho qo'yiladi (86-100 ball).

2-bosqich. Bitta qo'pol bo'lmagan xato va bitta kamchilikka yoki uchta kamchilikka ega bo'lgan to'liq bajarilgan ishga qo'yiladi. «4» baho (71-85 ball):

3-bosqich. Ishning $\frac{2}{3}$ qismini to'g'ri bajargan yoki bitta qo'pol xato va ikkita kamchilikka yoki bitta qo'pol va bitta qo'pol bo'lmagan xatoga yoki ikkita qo'pol xatoga yoki bitta qo'pol bo'lmagan xatoga va uchta kamchilikka yo'l qo'ygan o'quvchiga qo'yiladi. «3» baho (55-71 ball)

«2» va «3» baho talablariga javob bera olmagan O'quvchiga qo'yiladi, agar u ishni umuman bajarmasa, unga umuman baho qo'yilmaydi (ball berilmaydi) hamda, tegishli choralar ko'riladi.

Albatta bu baho me'yorlari taxminiydir.

Yakunlovchi baho o`quvchining o`quv ishidagi quyida keltirilgan faoliyatini nazarda tutgan holda qo`yilishi lozim:

1. Amaliy ishlarini bajarishdagi faolligini;
2. Uy vazifalarini muntazam bajarilishini, bajargan ishni to`g`riligi va miqdorini;
3. Og`zaki javoblarining sifatini;
4. O`quvchi tomonidan muammo qo`yishdagi va uni hal qilishdagi evristik suhbatda qatnashishini;
5. Darslik bo`yicha qilingan suhbatlar natijalarini;
6. Mustaqil va nazorat ishlaridagi xatoliklarning xarakterini.

Baholashning yakunlovchi bosqichi bitirish imtihonidir. Bitirish imtihonida yuqoridagi talablarning hammasini e`tiborga olgan holda o`quvchilarning o`zlashtirishlariga baho qo`yiladi.

Yuqoridagi baholash me`yorlaridan ko`zda tutilgan maqsad, dars davomida har bir o`quvchini o`z ustida ishlashga majbur etadi hamda, vaqtdan unumli foydalanishni o`rgatadi.

Darslarni yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish ishining boblarida ko`rib chiqilgan bo`lib, har bir mavzu uchun kerakli bo`lgan metodlarni qay tarzda tanlash va foydalanish haqidagi ma`lumotlar oqilona tarzda batafsil bayon qilingan.

Pedagogik tadqiqot natijalarini tahlil qilishda matematik-statistika metodidan foydalanildi.

Bunday metodni qo`llash, tadqiqot natijalarini ishonchliligi yoki ishonchsizligini isbotlanishini ta`minlashga imkon yaratadi. Shu sababli statistik metodning qo`llanilishi izlanish tavsifidagi tadqiqot ko`lamini o`zgartirmaydi.

Tajriba - sinov ishlari 2013-2014 o`quv yilining uchinchi va to`rtinchi choragi davomida pedagogik amaliyot vaqtida Samarqand shahar 49-o`rta umumta`lim maktabida 3-sinf o`quvchilari bilan o`tkazildi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlaridan ko`zlangan maqsad, o`qish darslarida o`quvchilarga yangi ilg`or texnologiya tuzilishini o`rgatish va bilim, ko`nikma va malakalarni ongli yetkazilishini o`rgatishdan iborat.

O`quvchilarni bilimini zamonaviy texnika va texnologiyalar asosida shakillantirilsa amaliy mashg`ulotlari jarayonidagi faoliyati samaradorligi yanada ortadi malakalarini rivojlantirishni ta`minlay olishni tekshirib ko`rishdan iborat.

Bundan ko`zlangan asosiy maqsad, o`qishdan mashg`ulotlarning samaradorligini oshirish, ta`lim jarayonida bir xillikdan qochish, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o`quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini o`stirish, ularning ilmiy tafakkur va izlanuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berish hamda bilim darajasini aniqlashdan iborat edi.

Tajribada sinf o`quvchilari ikki “Boychechak” guruhlariga, ta`lim noan`anaviy yani, yangi pedagogik texnologiyalar asosida olib borildi, “Binafsha” guruhlarida esa darslar an`anaviy tarzda o`tkazildi.

“Boychechak” guruh sifatida Samarqand shahar 49-o`rta umumta`lim maktabining 3 A sinf o`quvchilari tanlandi hamda,

“Binafsha” guruhi sifatida Samarqand shahar 49-o`rta umumta`lim maktabining 3 B sinf o`quvchilari tanlandi.

Tajriba o`tkazish jarayonida o`quvchilardan testlar olish, savol-javoblar va yozma ishlar ko`rinishida olib borildi. O`tkazilgan tajriba, tekshirish va kuzatish natijalarini matematik-statistika usullari bilan tekshirish va tahlil qilish ishonchli xulosalar chiqarish imkonini berdi.

O`quvchilar bilimining chuqurligi va mustahkamligi darajasini tahlil qilish, ularning og`zaki javoblari, test va yozma ish natijalari yuqorida ajratgan uchta bosqichda kategoriya bo`yicha baholandi.

Pedagogik tadqiqot ishida taklif etiladigan usullarning yoki yangiliklarni samaradorligini tekshirish va tajriba natijalarini ishonchliligini baholash uchun eng ko`p ishlatiladigan matematik-statistika modellaridan biri bo`lgan hamda, biz ko`rib chiqayotgan farazning haqiqiyiligini foydalanildi.

Misol tariqasida “Boychechak” va “Binafsha” guruhlarida olingan natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan bo`lib, bunda o`quvchilarning ko`rsatkichlari 100 ballik tizim bo`yicha baholandi.

Qo`yilgan muammolar bo`yicha “Boychechak” va “Binafsha”guruhlari qatnashchilarining ballari:

“Boychechak” guruh sifatida Samarqand shahar 49- o`rta umumta`lim maktabining 3“A” sinf o`quvchilarining erishgan natijalari:

№	O`quvchilar I.F.	Tajribaviy		
		1t	2t	3t
		34	34	34
1	Akramova Yuiduz	75	69	83
2	Dustov Umid	77	87	88
3	Namozov Asliddin	82	84	85
4	Hamroqulov Kamron	75	77	81
5	Iskandarova Iroda	78	75	80
6	Karimova Sevinch	72	72	81
7	Mahmudov Mahmud	82	71	83
8	Maxmudova Mehrangiz	81	75	86
9	Murodova Muqaddas	83	78	85
10	Musaeva Sevinch	76	73	85
11	Mustafaev Suhrob	77	87	88
12	Musinov Aziz	82	84	85
13	Narziyeva Xursandoy	75	77	81
14	Normurodova Ismigul	78	75	80
15	Nugmonova Sabina	72	72	81
16	Yoqibjonib Aminjon	82	71	83
17	Qurbonova SHaxzoda	81	75	86
18	Qurbonov Fariddun	83	78	85
19	Raxmonov Ikrom	76	73	85
20	Rustamov Ortiq	75	77	81

21	SHukrullyev Muzaffar	78	75	80
22	Toxirova Manzura	72	72	81
23	Abduvoitov Diyorbek	82	71	83
24	Xaitova Nigina	81	75	86
25	Xudoyberdiyev Ramish	83	78	85
26	Mamasoliev Abror	77	87	88
27	Zaripov Muhammad	82	84	85
28	SHaripov Aslaam	75	77	81
29	O'roqboeva Muxlisa	78	75	80
30	Aminov Abbosbek	72	72	81

“Binafsha” guruhi sifatida Samarqand shahar 49- o`rta umumta`lim maktabining 3 “B” sinf o`quvchilarining erishgan natijalari:

№	O`quvchilar I.F.	Tekshiruv		
		1tek	2tek	3tek
		35	35	35
1	Anorboyeva Aziza	66	69	64
2	Aminjonov Tehron	84	87	86
3	Askarova Nasiba	75	74	79
4	Abdurahmonov Orif	68	69	72
5	Islamov Aziz	75	80	77
6	Ismoilova Navruza	70	73	71
7	Jamolov Shohmalik	59	64	68
8	Karimov Abduxalim	73	76	77
9	Mamanazova M	71	73	74
10	Movlonova Nozanin	65	72	70
11	Narziqulov Said	70	73	71
12	Nurullayev Asilbek	59	64	68
13	Ne`matova Diyora	73	76	77

14	Ne'matova Zebiniso	71	73	74
15	Omonov Muzaffar	65	72	70
16	Po'latova Fotima	84	87	86
17	Qahramonova Laylo	75	74	79
18	Qosimova Sevinch	68	69	72
19	Rasulov Rasul	75	80	77
20	Rajabova Sanobar	70	73	71
21	Rustamov Oybek	59	64	68
22	Rustamova Ruxshona	73	76	77
23	Ro'ziqulov Farangiz	71	73	74
24	Rustamova Gulshan	65	72	70
25	Salimova Muxlisa	84	87	86
26	Umurova Shaxrizoda	75	74	79
27	Xakimjonov Nodir	68	69	72
28	Xamraqulov Turdiali	70	73	71
29	Xolbekov Og'abek	59	64	68
30	Zokiralyev Dilshod	73	76	77
31	Sheraliyev Asilbek	71	73	74
32	Sanayev Nuriddin	65	72	70

Bu jadvalda keltirilgan natijalar asosida ularning qonuniyatlarini topish uchun baholarning qaytariluvchanligini chastotaviy taqsimot gistogrammasini qurib ko'rish mumkin.

Diagrammadan o'quvchilarning "Boychechak" guruhlaridagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari "Binafsha" guruhlarining o'zlashtirish ko'rsatkichlariga qaraganda yuqori ekanligini ko'rish mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytsak, yangi ta'lim tizimi, mazmuni, o'quv reja, darsliklar asosida o'quv jarayonini loyihalashtirishga ham yangicha yondashish, tashkil etish zarurati tug'ilmoqda. Shunday ekan, boshlang'ich ta'limdan Xalq dostonlari qadimiyatning buyuk bir ehsoni, o'zlari yaratilgan davrning umumiy dunyoqarashi, ayni paytda jonli an'anaviy ijod va ijro sharoitlarida xalq ruhining obyektiv holatini davrlararo ifodalab, mazmun va shakl jihatidan goh kengayib, goh torayib, ajdodlardan avlodlarga og'zaki ravishda yetib kelgan adabiy yodgorliklar hisoblanadi. Zero, ular xalq milliy tarixining afsonalar qobig'iga o'ralgan qahramonlik voqealarining o'ziga xos badiiy ifodasidir. So'z san'atining boshlang'ich namunasi bu folklor bo'lib, u behad qadimiy so'z san'ati sanaladi, unda uzoq o'tmishda yashagan ibtidoiy ajdodlarimizning hali yozuvni bilmagan zamonlardagi turish-turmushi, dunyoqarashi va e'tiqodi, kurash va mag'lubiyatlari ifodalangan. Folklorda tasvirlangan voqelik vaqt (zamon) e'tiboriga ko'ra o'tmishga daxldor, undagi u yoki bu jamiyat tabiatida, til xususiyatlarida buning izlarini ko'rish mumkin.

«Alpomish» dostonida tarix to'fonlaridan, hayot-mamot sinovlaridan omon chiqib, o'zligini yo'qotmagan xalqimizning bag'rikenglik, matonat, olijanoblik kabi ezgu fazilatlarini o'z ifodasini topgan» Alpomish dostoni ijodiy tafakkurimiz, ma'naviy boyligimizning yorqin namunasi bo'lib tarixiy ildizlarimizning qanchalik chuqur ekani, xalqimiz qanday tabiiy-ijtimoiy muhitda shakillanib rivojanganini, ajdodlarimizning olis davrlarda ham jamoa bo'lib, bir-biriga yilkadosh bo'lib, o'z boshiga tushgan qiyinchiliklarni yingib yashaganini yorqin bo'yoqlarda tasverlab beradi.

«Alpomish» dostoni bizga vatanparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqgo'y bo'lishga, o'z yurtimizni, oilamiz qo'rg'onini qo'riqlashga, do'st-u yorimizni, or-nomusimizni, har qanday tajovuzdan himoya qilishga o'rgatadi.

Shunday ekan, boshlang'ich sinf o'qish darslarining samarali bo'lishiga erishish uchun quyidagi talablarni hisobga olish zarur:

- O'quvchilar "O'qish kitobi"dagi dostonlarni to'g'ri o'qish bilan chegaralanmay, uning mazmuni va g'oyasini tushinishlari kerak.

-O'qish darsida o'quvchilarda lug'at daftarlari bo'lishi zarur, chunki, dostonlarda uchraydigan yangi so'zlarni o'qituvchi doskaga yozib, izohlagandan keyin o'quvchilar daftarga yozib oladilar.

- O'qish darslarida o'quvchilarga dostonlarni o'qishni tavsiya qilishdan oldin o'qish jarayonida nimalarga e'tibor berish kerakligi tushuntirilib, maxsus topshiriqlar berilsa, o'quvchilarda mas'uliyati ortadi.

- Darslarda ko'rgazmalilik sifatida doston qahromonlarini rollarga bo'lib o'qitish, dars jarayonida rang-barang ish usullarini qo'llash o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi.

Yuqorida sanab o'tilganlarni amalda bajarish orqali o'qish darslari samaradorligini oshirishga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Siyosiy va Rahbariy adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. «Ma'naviyat» Toshkent. 2008-yil. 32,33,34-bet
2. Karimov I.A. «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori», “O'zbekiston”, Toshkent, 1998-yil. 146-bet
3. Ta'lim taraqqiyoti. Boshlang'ich ta'lim, «Sharq» 1999-yil, 7-maxsus son.
4. Ta'lim to'g'risidagi qonun T., 1997-yil.
5. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi T., 1997-yil.

II. Ilmiy nashrlar

III. Ilmiy maqolalar

IV. Darslik va o'quv qo'llanmalari

V. Lug'atlar

VI. Internet materiallari

Elektron ta'lim resurslari

1. www.ziyonet.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.tdpu.uz
1. Yusupov M. Boshlang'ich sinflarda o'qish va yozish malakalarini shakllantirish. –Toshkent: O'qituvchi. 1989-yil.
2. Abdullayev X. Birinchi sinflarda sinfdan tashqari o'qish. –Toshkent: O'qituvchi. 1988-yil.
3. Matchonov S. To'rtinchi sinfdan o'qish darslari. –Toshkent: O'qituvchi. 2003-yil.
4. Ernazarov G'. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish uslubiyati.”Zar Qalam” Toshkent, 2005-yil.
5. Qosimova K. va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi. “Noshir”, Toshkent-2009 yil. 108-149-betlar.
6. 13. Husanboeva Adabiy ta'limda mustaqil fikirlashga o'rgatish asoslari .
7. T., 2003 yil 27- 37- b .

8. Husanboeva Adabiy ta'limda mustaqil fikirlashga o'rgatish asoslari . T., 2003 yil 27- 37- b .
9. G'ulomova X, Yo'ldosheva SH. Ona tili o'qitish metodikasi. Ma'ru'za. T., 10.2003, 45-50-b
- 11.Oripov K. Obidova M. Ifodali o'qish. T . “ O'qituvchi” , 1996 yil 30- 35 –b
- 12.Mirzayev T. Terma (Xalq baxshilrining epik repertuari) Toshkent: ‘Fan” 1979
13. Mirzayev T, Safarov O, O'rayev D. O'zbek xalq og'zaki ijodi xristomatiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent,: “Aloqachi”, 2008 – y.
- 14.Ashrapova T. Oz komplektli maktablarda o'quv mashg'ulotlari, T., «O'qituvchi», 15-17-betlar.
- 15.Yusupov M. Boshlang'ich sinflarda o'qish va yozish malakalarini shakllantirish. –Toshkent: O'qituvchi..
- 16.Safarova R. va b. «Alifbe», T., «Ma'naviyat», 2005-yil.
- 17.Safarova R. va b. Savod urgatish darslari. T., «Ma'naviyat», 2003-yil.
- 18.G'afforova T. va b. «O'qish kitobi», 1-sinf, «Sharq», 2005-yil.
19. Abdullayeva K. va boshq. O'qish kitobi. 2-sinflar uchun darslik. –Toshkent: Yangi asr avlodi. 2005-yil.
- 20.Umarova M. «O'qish kitobi» 3-sinf uchun. T., «O'qituvchi», 2005-yil.
- 21 . Umarova M. «O'qish kitobi» 3-sinf uchun. T., «Cho'lpon», 2010-yil.
22. Shojalilov A. va boshqalar. «O'qish kitobi» 4-sinf. «O'qituvchi», 2005-yil.
23. Umarova M. O'qish kitobi. 3-sinflar uchun darslik. –Toshkent: Yangi asr avlodi. 2003-yil.
- 24.Boshlang'ich ta'lim jurnallari. 2013-yil 6,10 sonlari

TAKLIFLAR

Xalq og'zaki ijodi va uni o'qitishda inovatsion texnologiyalardan foydalanish. Pedagog aslida bola yitaklovchi degan ma'noni anglatadi. Har bir o'qituvchi o'quvchilarini darsga qiziqтира olishi lozim. Chunki 21 asr axborot-texnologiyalar asri hisoblanadi. Shunchaki oddiy dars o'tish bilan o'quvchilarini darsga jalb qilib bo'lmaydi. Boshlang'ich sinf o'quv xonalarining kompyuterlashtirilishi. Darslarda mavzuga oid balalarga mos keladigan film va mutfilmlardan foydalanish. Multipikatsiya darslarini tashkil qilish. O'quvchilar darsni chetdan kuzatuvchi emas balki, ishtirokchi bo'lishlari kerak. Darslarni saxna ko'rinishida ham tashkil etish mumkin. Darsda turli o'yin metodlaridan foydalanish, o'quvchilarni erkin fikrlashga o'rgatish o'z fikrini qurqmasdan bayon qilishini ta'minlash.

3-”A”

№	Familiyasi	Ismi	Otasining ismi	Tug'ilgan kun,oy,yil	Guvohnoma seriyasi	Yashash manzili
1	Akramova	Yulduz	Akmalovna	07.09.2004	ISM 0343712	Erkinlik 20
2	Baratova	Shaxnozabonu	Akmalovna	11.12.2003	IISM0277426	Beruniy 34
3	Dustov	Umid	Yusuf o`g`li	06.05.2004	Ism 0017224	Yangi hayot 2/82
4	Hamroqulov	Kamron	Ashurovich	06.01.2004	ISM0017224	A.Xorazmiy 40
5	Iskandarova	Iroda	Islom qizi	03.14.2004	ISM0227621	Isloxot 16
6	Namozov	Asliddin	jahonovna	12.03.2004	ISM0256314	Bog`bonlar 21
7	Karimova	Sevinch	Farxodovna	09.05.2004	ISM 0363650	Yangi hayot 2/100
8	Muhammadov	Mahmud	Sherqoziyevich	07.04.2004	ISM 0460084	Zarafshon 23
9	Maxmudova	Mehrangiz	Mansurovna	06.03.2004	ISM 0008153	Farobiy 21
10	Murodova	Muqaddas	Baxodir qizi	07.11.2005	ISM 0387361	Ibn xoldun 55
11	Musayeva	Sevinch	Ibragimovna	07.26.2004	IISM 074044	Naqshbandiy 17
12	Musinov	Aziz	Bahtiyor o`gli	01.10.2004	IISM 0332773	A.Xorazmiy 60
13	Mustafayev	Suhrob	Yuldashevich	11.08.2003	IISM 0277443	Maysazor 35
14	Narziyeva	Xursandoy	Shukrullo qizi	01.12.2005	IISM0460354	A.Xorazmiy 59/40
15	Normurodova	Ismigul	Ilyoz qizi	01.06.2005	ITN 0036103	Abdullyev 32
16	Nugmonova	Sabina	Suhrobovna	09.25.2005	ISM 0096675921	Beruniy 38/50
17	Yaqubjonov	Aminjon	Tohirovich	21.06.2004	ISM0025662	Faroboy 58
18	Qurbonova	Shaxzoda	Dilshodovna	05.03.2005	ISM 0026894310	Yangi hayot 9
19	Qurbonov	Fariddun	Eshonqulovich	05.02.2004	IISM 0277443	Ibn xoldun 1/10
20	Raxmonov	Ikrom	Isayevich	11.02.2003	IISM 0332806	A.Xorazmiy 40
21	Rustamov	Ortiq	Nazarbek o`g`li	04.06.2004	ISM 0042739738	Beruniy 144/111
22	Shukrullayev	Muzaffar	G`ayratovna	02.08.2004	ISM0025553	Beruniy 34/55
23	Toxirova	Manzura	Murod qizi	09.20.2004	ISM 0035126	Rudakiy 21
24	Abduvoitov	Diyorbek	Hasn o`g`li	26.05.2005	ISM0452522	Beruniy 42/55
25	Xaitova	Nigina	Faxriddin qizi	04.11.2004	IIGZ0126190	Rudakiy 11
26	Xudiyberdiyev	Ramish	Hakimovich	07.08.2004	ISM 0015824	Spitamen 196
27	Mamasoliyev	Abror	salimovna	23.11.2005	ISM0078545	Beruniy 44/6
28	Zaripov	Muhammad	Zaripovich	04.07.2005	ISM 0074598	Beruniy 42/36
29	Sharipov	Aslam	Zafar o`g`li	07.12.2004	ISM 0243929	Nukus 30
30	O`roqboyeva	Muhlisa	Dilshod qizi	07.10.2004	ISM 0059620	Beruniy 44/58

